ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

*Сайдуллаева Саидахон Раҳмановна*

*Андижон шаҳар 74- ИДУМ физика фани ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мақолада физикадан масалалар ечиш жараёнида ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш мухокама қилинади.

**Калит сўзлар:** физика, тажриба, ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш.

**Аннотация:** В статье обсуждается развитие творческой способности учеников в процессе решение задач по физике.

**Ключевые слова:** физика, опыт, развитие творческих способностей учащихся.

**Annotation:** In work developing of creation capability of pupils in solving process of physical tasks is discussed.

**Keywords:** physics, experience, development of students' creative abilities.

Маълумки, яратилган ҳар қандай фойдали ихтиро, кашфиёт ва бошқа ижодий ишланмалар келажакда ҳаётга, ишлаб чиқаришга татбиқ этилади, чунки ҳар бир автоматлашган тизим бажарадиган вазифа маълум физик, кимёвий, биологик, умуман олганда табиат ҳодисаларидан, жараёнлардан иборат бўлади. Янгиликларни турли техник қурилмаларда, ишлаб чиқариш цехларида, шунингдек кундалик хизмат кўрсатиш корхоналарида қўлланилиши, шунингдек ижтимоий хаётнинг барча соҳаларида автоматлашган тизимлардан фойдаланишининг тобора кенгайиб бориши замонавий ахборот технологиялари бўйича зарурий билимлар билан қуролланган, ушбу тизимларни бошқариш, таъмирлаш ва керак бўлса, бажарадиган вазифасини ўзгартира оладиган ёш ижодкор мутахассисларни тайёрлаш ҳозирги вақт талабидир. Ахборотлар оқимиининг ва техник имкониятларнинг кескин ортиши ҳамда ёшлар қўз ўнгидагузатилаётган иқтисодий ўсишлар шахсдан ижтимоий, иқтисодий ёки техник масалага ижодий ёндашувни ва доноликни талаб этмоқда.

Умумтаълим ва ўрта маҳсус таълим тизимида физика фанининг умумтаълим предметлари қаторида ўқитилиши ўқувчиларнинг замонавий илғор техника ва фан ютуқларини тушунишларида ва уларнинг умумий дунёқарашини шаклланишида муҳим ўрин тутади. Яқин вақтларга қадар физика фанини ўқитиш ўқувчиларга физика асосларини чуқур ўргатишдангина иборат бўлиб келган. Эндиликда мазкур вазифалар билан бир қаторда физика фанини ўқитиш орқали ўқувчиларни сўнги фан-техника ютуқларидан хабардор қилиш ва уларда назарий

билимларини амалда қўллай олиш, ижодий изланиш каби кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш ҳамда глобаллашув жараёнида инсоният олдига қўшимча вазифалар кўндаланг қилиб қўйилмоқда. Бундай вазифани бажариш учун ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш ва тарбиялаш жараёни бевосита фанларни ўқитиш жараёнида амалга оширилиши мақсадга мувофиқдир.

Физика фани ўқитилишини мактабдан бошлаб таҳлил этадиган бўлсак, унда бир қанча номутаносибликни кузатамиз. Мактабларда физика фанини ўқитилишида.

Биринчидан – мактаб ўқув дастурида амалий масалалар устида ишлашга ажратилган вақт кам эканлиги сабаб, ўқувчиларда реал воқеликни тўлиқ англашга имкон бўлмайди.

Иккинчидан – физика фаниниг ўқитиш методикаси эскича усулда давом этаётганлиги туфайли ўқувчи ёшлар орасида фанга бўлган қизиқиш сустлиги, илмга бўлган интилиш пасайганлигини кўриш мумкин.

Учинчидан – фан - техника тараққиёти даврида мактаб ўқув дастурида физика фанига ажратиласкан юклама тобора камайиб бормоқда.

Ҳозирги вақтда аксарият ўқувчиларда абстракт фикрлаш, воқеа ва ҳодисани тасаввур этиш, қўйилган масалани еча олиш қобилиятлари етарли даражада деб бўлмайди. Физика фани уларнинг кўз ўнгидаги воқелик ва ҳодисаларни ўргансада, бу фан ўқувчилар учун ўзлаштирилиши қийин фанлар қаторига кириб қолган.

Физика ўқитишида асосан назарий ва амалий дарс шаклларидан фойдаланилади. Амалий дарслар ичida физикадан масалалар ечиш дарсининг ўрни ва аҳамияти салмоқлидир. Масала ечиш жараёнида ўқувчиларга билим бериш билан бирга ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш, олган назарий билимларини мустаҳкамлаш ва уларни амалиётда қўллай олиш кўникмаларини шакллантириш ҳамда ўқувчиларга илмий асосланган тарбия бериш каби муҳим вазифалар ҳал қилинади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, физика фанини ўқитишида педагоглар қуидаги асосий мақсадларга эриша олишлари керак:

- ўқитиши жараёнида ўқувчиларни келажакдаги ўз касбини аниқлашларига ва унга тайёрланишларига илмий ва услубий асосли имкониятлар яратиш;
- ўқувчиларнинг лаёқатларини тўғри баҳолаш, ижодкорлик қобилиятларини аниқлаш, шакллантириш ва ривожлантириш;
- ўқитиши жараёнига узлуксиз ижодий ёндашиш, унинг янги шакллари ва усувларини яратади олиш ҳамда таълимга жорий этиш.

Юқоридаги мақсадларга эришиш учун келажакда педагог бўлиб етишувчи, олий таълимдаги бакалаврларни тайёрлашда фанлар интеграциясини ўзида мужассамлаштирган қўшимча билимлар ўргатилиши лозим. Мактабда ўтказилган

тажриба ва кузатишлар шуни кўрсатдики, табиат ҳодисаларини ўрганиш жараёнида, воқеликни анимацион кўриб, улардаги воқеа параметрларни ўзгартирилганда ҳодисада қандай ўзгаришлар юз беришини кузатиш ўқувчиларда физика фанига нисбатан катта қизиқиш уйғотди.

Шунингдек кўп йиллик тажриба ва кузатишлар давомида мактаб, академик лицей ва қасб-хунар коллежлари ўқувчиларининг масалалар ечишга қизиқишини, уларнинг ижодий фаолиятини ўрганиш, малакали ўқитувчилар билан ўтказилган сұхбатлар, сўровномалар, илмий-методик конференциялар холосалари ҳамда ўтказилган назарий педагогик тадқиқот натижаларига асосан қуйидаги умумий ҳал этилиши лозим бўлган муаммолар мавжудлигини таъкидлаш мумкин:

1. Ўқитувчиларнинг шахсий характерлари ва психологиясилаrinинг ўқитиши жараёнига таъсир кўрсатиши ва айрим ҳолларда салбий аҳамиятга эга бўлиш ҳолатларининг мавжудлиги;

2. Ўқувчиларнинг айрим физик тажриба жараёнини техник жиҳатидан тўла кузата олмаслиги ва оқибатда ҳодисаларни тўғри таҳлил эта олмаслик ҳолатларининг мавжудлиги;

**3. Масала ечиш жараёнида ўқувчилар ёндашган вариантларининг (йўлларини) тўғри ёки нотўғрилигини билишга қийналиши ёки кечикиб билиши ва оқибатда мазкур масалага керагидан ортиқча вақт сарфлаш ҳолатининг мавжудлиги;**

**4. Масала ечишни ўргатиш жараёнида мисол тариқасида асосан ўртacha оғирлиқдаги масалалар кўрсатилади. Бу эса кам унумли ва кам самарали усул бўлиб, ўқувчиларда кўпроқ масалага расмий (формализм) жиҳатидан қарашни шакллантириши;**

5. Атрофдаги реал муҳит билан боғлиқ ва айниқса ижодий характердаги масалаларнинг камлиги, ёхуд ўқитувчиларда бундай масалалар тузиш, уларни ечиш ҳамда улардан дарсда фойдаланиш кўниқмаларининг етишмаслиги;

6. Физика ўқитишида қўлланилиши мумкин бўлган ва айниқса ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган янги педагогик технологияларнинг тизимли тарзда таҳлил этилмаганлиги.

7. Математик моделлаштириш ва замонавий ахборот технологияларини физика таълимида қўллашнинг дидактик жиҳатлари етарли даражада таҳлил этилмаганлиги ва бундай шароитда ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича услубий тавсияларнинг ишлаб чиқилмаганлиги;

8. Физика фани бўйича ўқувчиларнинг мустақил билим олишлари ва ижодкорлик қобилиятларининг ривожланишини стимулловчи ўзбек тилидаги ЭХМ дастурий маҳсулотларининг, электрон дарслик ва ўқув қўлланмаларининг ҳамда физик тажрибаларнинг виртуал моделларининг етарли эмаслиги;

9. Қийин тасаввур қилинадиган абстракт тушунча ва катталикларни ўқувчи ва талабаларга ўқитувчи томонидан ижодий ёндашган тарзда моделлаштириш ҳамда ЭХМ ёрдамида ифодалаб ёки тасвирлаб тушунтириш қўникмаларининг етарли даражада шакллантирилмаганлиги.

10. Халқаро таълим стандартларига мос келувчи таълим системасини яратиш замерида физика фанига берилган ўқув юкламаси тобора камайиб бораётганлиги.

Ўқувчиларда ижодкорлик қобилияtlарининг ривожланиши ва шаклланишини бошқариш тизими ҳамда кетма-кетлиги аниқ бир фан учун педагогика назариясида берилмайди. Аммо, физика фанини ўқитишида шундай усул қўллашимиз мумкинки, бу усулда ҳар бир физика фани ўқитувчиси ўз устида ишлиши туфайли масалага формализм жиҳатидан қарашни рад этишга мажбур бўлиб, юқори натижага эришиш учун мустақил фикрлашни, илмий дунёқарашни ривожлантирувчи, илмий излантирувчи ва ижодий ёндашувни талаб этувчи интеграцион усуллардан фойдаланишга мажбур бўлиши лозим.

Айтиб ўтилган фикрлардан келиб чиқиб, ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилияtlарини ривожлантиришга алоҳида эътибор бериш муҳимлигини таъкидлаш мумкин. Шу мақсадда компьютер ёрдамида физика масалаларини ечишга этибор қаратилиб, қўйидаги хulosаларга келинди:

Масаланинг физик тушунчаларни шакллантиришдаги ўрнига кўра

1. физик тушунчани аниқлаштирувчи масала,
2. тушунча ҳажмини ва реал моҳиятини аниқлаштирувчи масала,
3. тушунчани миқдорий ёки сифатий жиҳатидан дифференсировчи масала,
4. янги тушунча ҳосил қилувчи ва мустаҳкамловчи масала,
5. тушунчаларни тизимлаштирувчи ва ўқувчиларга тушунчаларни классификациялашга ўргатувчи масала,
6. физик тушунчаларни турли ҳолатларда қўллашни ўргатувчи масалаларга бўлинади.

Физика масалаларини ечишда ЭХМ (компьютер)дан фойдаланиш, ЭХМли ёки виртуал масала тўғрисида сўз борганда, аввало шуни билишимиз керакки, бу услуга таълим жараёнига ахборот технологияларини кириб келиши билан боғлиқдир. Бундай масалаларни қуйидагича турларга ажратишими мумкин:

а. Миқдорий масалаларни ечиш жараёнида тенгламаларни дастурлаш ва ЭХМ ёрдамида ҳисоблаш. Бу услубдан фойдаланиш учун ўқитувчи ва ўқувчилар элементар дастурлаш бўйича зарурий билимларга эга бўлиши лозим.

б. Миқдорий масалаларни ечиш натижаларини тегишли ҳаракатли жараёнларни ЭХМда дастурлаш ва виртуал экспериментлар бажариш орқали текшириш. Бу услубдан фойдаланиш учун ўқитувчи ҳаракатли жараёнларни дастурлаш, яъни виртуал экспериментлар бажариш бўйича билим ва қўникмаларга эга бўлиши лозим.

в. Тест услубида тузилган турли масалаларни ЭХМ ёрдамида ўқувчига тақдим этиш ва ечиш. Бу услубдан ўқувчилар билимини тезкор аниклаш мақсадида самарали фойдаланиш мумкин.

г. Экспериментал масалаларни ЭХМ ёрдамида ўқувчига тақдим этиш ва ечиш. ЭХМ дастурида зарурий физик катталиклар қийматларини киритиш ва натижани мониторда, яъни виртуал экспериментда кузатиш имконияти яратилади.

д. Графикли ёки функцияли масалаларни ЭХМ ёрдамида ўқувчига тақдим этиш ва ечиш. ЭХМ дастурида зарурий физик катталиклар қийматларини киритиш ва натижавий графикни мониторда кузатиш имконияти яратилади. Бунда «Microsoft Excel» дастуридан фойдаланиш тез самара беради.

е. Ҳаракат ва жараёнларни кузатиш бўйича мантиқий ёки сифатий масалаларни ЭХМ ёрдамида ўқувчига тақдим этиш ва ечиш.

Ўқувчиларга физика масалаларини ечишнинг умумлашган услубини ўргатиш учун масала ечиш жараёнининг структурасини билиш талаб этилади. Шунинг учун дарсларда кенг қўлланиладиган масалалар ечиш жараёнини структуравий тахлил этамиз.

Ҳар қандай турдаги физика масаласини ечиш учун қуидаги структуравий босқичлар (кетма-кетлик) бажарилиши лозим:

1-босқич: Масала шарти билан танишиш.

2-босқич: Масалани ечиш режасини тузиш.

3-босқич: Масалани ечиш.

4-босқич: Масала ечимининг тўғрилигини текшириш.

Масала ечишнинг умумий алгоритми (амаллар кетма-кетлиги) қуидаги тартибда бўлади:

1. Масала шартини диққат билан ўқиши, асосий савол нимадан иборат эканлигини аниклаш. Берилган жараён ёки ҳодисани тасаввур қилиш.

2. Масала шартини қайта ўқиши, асосий саволни, мақсадни ва берилган катталикларни аниклаштириш. Буларга таяниб ечим қидириш .

3. Умумий қабул қилинган шартли ҳарфлар ёрдамида белгилашлар асосида масала шартини қисқа кўринишда ёзиш.

4. Масала шартига мувофиқ расм ёки чизма чизиши.

5. Масала қайси метод билан ечилишини аниклаш ва режа тузиш.

6. Масалада берилган жараённи ифодаловчи тенгламаларни ёзиш.

7. Берилган катталиклардан фойдаланиб қидирилаётган катталиктининг умумий ечимини топиш.

8. Катталикларнинг ўлчов бирликларидан фойдаланиб, умумий ечимининг тўғрилигини текшириш.

9. Ҳисоблашни бажариш.

10. Олинган натижанинг мантиқий реаллигини баҳолаш.

## 11. Натижани ёзиш.

Масала ечишнинг бундай умумлашган алгоритми (амаллар кетма-кетлиги) асосида турли кўринишдаги масалаларга ҳам муайян алгоритмлар тузиш мумкин.

Ўқувчиларга физика масалаларини ечишнинг умумий методикасини ўргатиш учун,

биринчидан - муайян таълим жараёнининг бошланишида, масалан, 7-синф ўқувчиларида масала ечиш кўникмасининг қай даражада эканини билиш зарур.

Иккинчидан - ўқувчилар умумтаълим мактабини тамомлаганида физика масалаларини ечишнинг умумий методлари бўйича қандай даражадаги билим ва кўникмаларга эга бўлиши тўғрисида аниқ тасаввурга эга бўлиш талаб этилади.

Учинчи муаммо шундан иборатки, ўқитувчи физика масалаларини ечишнинг умумий методларини ўргатиш бўйича энг самарали йўлни танлай билиши лозим.

Олий таълим муассасаларида юқорида кўриб ўтилган фикрларни, муаммоларни ҳал этиш йўлида олиб борилган изланиш, тадқиқотлар, кафедра мутахассислари, талабалар билан бирга ишлаш натижасида кўплаб ЭҲМ дастурлари яратилиб, ўқитиши жараёнига тадбик этилди. Натижада талабалардаги физик масалага нисбатан формал ёндашувлар камайиб, ижодий фикрлаш кирралари намоён бўлди. Айнан шу изланишлар ҳамда тадқиқотлар умумтаълим мактабларида ҳам қўлланилиб, ЭҲМ дастурларидан фойдаланилган ҳолда физик масалаларни ечишда маҳсус дастур ишлаб чиқилса, ўқувчи ёшлар орасида физика фанига бўлган қизиқиши интилишда ижобий натижаларга эришган бўлар эдик.

## АДАБИЁТЛАР:

1. [Г.Е. Карлибайева](#).Физика ўқитиши методикаси фанининг самарадорлигини ошириш йўллари,2014, [Фан ва технология](#).
2. Крайнова Е.Е. Развитие творческих способностей учащихся на уроках физики.Казань, Молодой учёный №2 (188) январь 2018 г.
3. Федеральный государственный образовательный стандарт основного общего об разования (утв.приказом Министерства образования и науки РФ от 17 декабря 2010 г. N 1897)
4. Утёсов В. В., Зиновкина М. М., Горев П. М. Педагогика креативности: Прикладной курс научного творчества: Учебное пособие.–Киров: АНОО «Межрегиональный ЦИТО», 2013.
3. Утёсов В. В. Методика развития креативности учащихся основной школы // Концепт.–2012.–№1(Январь).–ART 1202. –URL: <http://e-koncept.ru/2012/1202.htm>.– Гос. рег. Эл № ФС 77-49965. – ISSN 2304-120X.
4. Бухвалов В. А. Развитие учащихся в процессе творчества и сотрудничества.–М.: Педагогический поиск, 2000.–144 с.
5. Бабаев В.С. Физика. Нестандартные задачи с ответами и решениями.–М.: Эксмо,2007.–144с.
6. <http://www.zanimatika.narod.ru/Nachalka.htm>
7. <http://festival.1september.ru/articles/585220/>

TOK ZARKUNANDALARI

*Oripov Sardorbek Shuxratjon o'g'li  
Farg'ona viloyati o'simliklar karantini va boshqarmasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Tok o'simligida uchraydigan zararkunandalar va ularga qarsgi kurashish haqida.

**Kalit so'zlar:** O'simlik, nav, novda, turkum, zararkunandalar.

Tokga bir qator zararkunandalar zarar etkazishi mumkin: unsimon uzum va komstok qurtlari, uzum kanasi, uzum tsikadasi, shingil qurti, akatsiya soxta qalqondori, arilar va boshqalar. Bu zararkunandalarning ko'pchiligi sanchib-so'rvuchi og'iz apparatiga ega bo'lib, asosan tokning yangi o'sib chiqqan barg va novdalarini zararlaydi.

Unsimon uzum va komstok qurtlari (chervetslar)

Har ikkala hasharotning tuzilishi hamda hayot kechirishi bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun birga ta'riflanadi. Bu hasharotlar orasida ayniqsa komstok qurti keng tarqalgan bo'lib, uni O'zbekistonning barcha hududlarida uchratish mumkin. Unsimon uzum qurti esa keng tarqalgan bo'lmasada, ba'zan uzumga kuchli xuruj qilishi mumkin.



Ta'rifi. Bu hasharotlarning tashqi tuzilishida jinsiy dimorfizm, ya'ni turli shakllanish keskin ko'zga tashlanadi. Urg'ochisi qanotsiz, beso'naqay, qattaligi 3,5-4 mm keladi, sekin harakatlanadi, o'ziga xos yassi shaklga ega, tanasining atrofida etarlicha uzunlikka ega 17 juft mumsimon ip ko'rinishida o'siqlari bor. Bu o'siqlarning oxirgi jufti qolganlaridan uzun bo'lib, «dum» shaklida bo'ladi. Har ikkala turga mansub urg'ochi zotlarni ayni shu belgi ajratib turadi: komstok qurtining mazkur o'simtalari uzun bo'lib, tanasining yarmicha keladi, uzum unsimon qurtining o'simtalari esa kaltaroq (tanasing uchdan yoki to'rtdan biriga teng). Qurtning tuni sarg'ish-jigarrang bo'lib, u maxsus bezlar mahsuli □ oq mumsimon qoplama bilan egallangan. Erkak zoti mayda (1,2-1,5 mm), bir juft qanotli hasharot bo'lib, tanasining oxirida ikkita dum ipi, boshida esa uzun cho'tsimon mo'ylovi mavjud.



Hayot kechirishi. Komstok qurti voyaga etmagan lichinkalik shaklida, uzum unsimon qurti esa tuxum shaklida, asosan po'stloqlar ostida hamda turli pana joylarda qishlab chiqadi. Komstok qurtining lichinkalari, uzum unsimon qurtining esa voyaga etgan urg'ochi zotlari bahorda, mart oyining oxiri-aprel boshlarida paydo bo'ladi. Ular oziqlangach, voyaga etganlari asosan partenogenetik (erkaksiz) tuxum qo'yib ko'paya boshlaydi. Har bir urg'ochi zot 15-30 kun ichida jami 250-600 ta tuxum qo'yishi mumkin. Tuxumdan ochib chiqqan lichinka 3 yoshni boshdan kechiradi. Uchinchisi tinchlik davrni kechib, yana etuk urg'ochi zotga aylanadi. Bir mavsumda unsimon qurtlar 3-4 bo'g'in berishi mumkin. Har ikkala unsimon qurtlar-ning barcha hayotiy shakllari qishlab qolishi mumkin. Lekin komstok qurtining faqat ovisak □ to'rvadagi tuxumlari, uzum unsimon qurtining esa faqat etilmagan urg'ochi zotlarigina omon qoladi, qolganlari qirilib ketadi.

Zarari. Unsimon qurtlar faqatgina uzum emas, balki turli daraxtlarga (hammaxo'r): olma, nok, tsitrus o'simliklari, anjir, anor, tut va bir qator bir yillik o'simliklarga ham xuruj qilishi mumkin. Bu zararkunandalarning lichinkalari sanchib-so'ruvchi og'iz apparati bilan o'simliklarning turli a'zolarini shikastlashi mumkin: barg, tana, novda, meva va boshqalar. Shikastlangan o'simliklar o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, hosil sifatsiz bo'lib, 50-70% gacha kamayadi. Unsimon qurtlar mavjudligini tok (uzum) hamda barcha boshqa daraxtlardan oqib tushayotgan shiradan yoki o'rmalagan chumolilar ko'payganidan bilish mumkin.

Kurash choralar:

1. Tashkiliy-xo'jalik va o'simlik bardoshlilagini oshiradigan agrotexnik choratadbirlari.

2. Biologik usul sifatida unsimon qurtlarning samarali kushandasini □ psevdafikus (*Pseudaphicus malinus* Gah.) qo'llaniladi. Undan tashqari tabiatda bu qurtlarning

boshqa samarali kushandasi ham bor. Masalan, bona mushkasi (pashshasi) □ Leucopisbona Rohd. Uning lichinkalari komstok qurtining ko'plab qismini qiradi (Yaxontov, 1963).

3.Kimyoviy kurash sifatida turli sintetik piretroid hamda fosfororganik insektitsidlar qo'llaniladi. Toklarga mavsum mobaynida 2-3 marta ishlov berish lozim. Oxirgi ishlov uzum etilishidan 30 kun ilgari tugallanishi shart.

### Foydalanimanadabiyotlar

1. [^ Xedrik, Buyuk Britaniya; Xau, G.H .; Teylor, O.M .; Berger, A .; Slate, G.L .; Einset, O. \(1925\). \*Nyu-Yorkning kichik mevalari\*. Albani, Nyu-York: J. B. Lion. Arxivlandi asl nusxasidan 2012-03-18.](#) sahifa 96
2. [^ RHS o'simlik tanlovchisi Rubus idaeus 'Glen Moy' PBR \(F\) AGM / RHS bog'dorchilik Arxivlandi](#) 2013-06-17 da [Orqaga qaytish mashinasi](#). Apps.rhs.org.uk. 2012-09-24 da olingan.
3. [^ RHS Plant Selector Rubus idaeus 'Malling Jewel' \(F\) AGM / RHS Gardenening Arxivlandi](#) 2013-06-17 da [Orqaga qaytish mashinasi](#). Apps.rhs.org.uk. 2012-09-24 da olingan.
4. [^ RHS o'simlik tanlovchisi Rubus idaeus 'Glen Ample' PBR \(F\) AGM / RHS bog'dorchilik Arxivlandi](#) 2013-06-17 da [Orqaga qaytish mashinasi](#). Apps.rhs.org.uk. 2012-09-24 da olingan.
5. [^ RHS o'simlik selektori Rubus idaeus 'Glen Prosen' PBR \(F\) AGM / RHS Gardenening Arxivlandi](#) 2013-06-17 da [Orqaga qaytish mashinasi](#). Apps.rhs.org.uk. 2012-09-24 da olingan.

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYA TIZIMIDAGI MAKROIQTISODIY  
KO'RSATKICHLAR**

*Abdumalik Abdurahmonov Abduq`ani o`g`li*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda davlat moliyasini boshqarish, O'zbekistonda davlat moliyasini samarali boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat moliya tizimini takomillashtirish bo'yicha strategiyaning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** moliya, davlat moliyasi, davlat moliyasini boshqarish, taraqqiyot strategiyasi, davlat moliya tizimini takomillashtirish strategiyasi.

Davlat byudjeti to'g'risida batafsil ma'lumotlar joylashtirilib kelinayotgan "Openbudget.uz" axborot portali 2019 yilning yanvar oyidan boshlab ishga tushirildi;

Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat moliyaviy statistikasi (GFS) standartlariga muvofiq shaklda Xalqaro valyuta jamg'armasining saytida joylashtirib borilmoqda;

2019 yildan boshlab tuman va shahar byudjetlarida hosil bo'ladigan qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizi fuqarolar tomonidan bildirilgan tadbirlarga asosan yo'naltirish mexanizmi joriy etildi;

Byudjet mablag'larini tasarruf etuvchilar hamda mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonini to'liq o'z rasmiy saytlarida e'lon qilib borishlarini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlariga tegishli normalar kiritildi.

Shuningdek, 2020 yildan boshlab ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda Davlat byudjeti loyihasi ilk bora Qonun shaklida qabul qilindi hamda vazirlik va idoralarning vakolat va mas'uliyatini oshirish maqsadida byudjet xarajatlari avvalgidek sohalar bo'yicha emas, balki vazirlik va idoralar kesimida tasdiqlandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari tomonidan, mahalliy byudjetlar esa tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlash amaliyoti joriy etildi.

2018-2019 yillar davomida mamlakatda soliq islohotlari amalga oshirilib, iqtisodiyotga soliq yuki kamaytirishga erishildi, shuningdek soliq turlari maqbullashtirilib, qo'shilgan qiymat soliq to'lovchilar sonini oshirish hisobiga qo'shimcha qiymat solig'i zanjirini hosil qilishga erishildi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida soliqlarni ortiqcha undirganlik uchun davlat soliq xizmati organlarining javobgarligi kuchaytirildi, zamонавиу usullarni qo'llagan holda xorijiy amaliyotda sinalgan soliq nazorati shakllari joriy etildi, shuningdek,

soliqlarni hisoblash va to‘lash tartiblari soddalashtirildi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil natijalari davlat moliyasini boshqarish tizimida mamlakatning o‘rta va uzoq muddatli byudjet loyihalarini rejalashtirish bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlarga erishish borasida qilinadigan ishlar ko‘pligini ko‘rsatdi.

Xususan, byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxonalarining hisobi alohida yuritilishi, shuningdek vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari mablag‘lari konsolidatsiyalashgan byudjetda aks ettirilmasligi Davlat byudjeti mablag‘larining shaffofligini to‘liq ta’minlashga to‘sinqinlik qilmoqda.

Mahalliy byudjetlarni mustaqil ravishda belgilab olish imkonini beradigan byudjetlararo transferlarni hisoblashning shaffof metodologiyasini ishlab chiqilmagan.

Davlat xaridlari va investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, davlat aktivlari va majburiyatlarini boshqarish uchun tavakkalchiliklarni baholashning samarali tizimini joriy etish taqozo etilmoqda.

Ko‘rsatib o‘tilgan kamchilik va muammolar amalga oshirilayotgan byudjet siyosatini ob’ektiv va ishonchli baholash imkonini bermaydi hamda byudjet xarajatlarini o‘rta muddatga mo‘ljallangan davlat dasturlari bilan samarali tahlil qilishga to‘sinqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda davlat moliyasini sog‘lomlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borish zarur hisoblanadi.

Mamlakatning uzoq muddatli rivojlantirish kontseptsiyalarini hamda ustuvor davlat dasturlari, xususan, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilgi Oliy Majlis palatalariga murojaatnomasi, 2030 yilgacha Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasi hamda boshqa shu kabi davlat dasturlari Strategiyani ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Strategianing asosiy maqsadi har tomonlama puxta o‘ylangan byudjet siyosatini olib borishni, mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishni, ularning shaffofligi va ochiqligini ta’minlashga qaratilgan davlat moliyasini boshqarishning samarali tizimini yaratishdan iborat.

Strategianing maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

- strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan hamda o‘rta muddatga mo‘ljallangan soliq-byudjet siyosatini yuritish;
- fiskal nazoratni kuchaytirish, birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilari uchun ajratiladigan byudjet mablag‘larining chegaralangan

miqdorlarini Oliy Majlis tomonidan belgilash orqali byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas’uliyatini va hisobdorligini oshirish;

uzoq muddatga davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan soliq-byudjet siyosatini joriy etish;

—□ byudjet jarayonining shaffofligi va byudjet ma’lumotlarining ochiqligini oshirib borish;

—□ byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini va javobgarligini oshirish hamda byudjetlararo transfertlar taqdim etishning shaffof mexanizmini joriy etish.

Strategiyani ishlab chiqishda nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar, balki moliyaviy-iqtisodiy jihatdan tuzilishi bo‘yicha o‘xhash mamlakatlar tajribasi ham o‘rganib chiqilgan.

Strategiyani amalga oshirish davri 2024 yilgacha mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi oltita muhim maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

Mazkur Strategiyani amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tomonidan Strategiyada belgilangan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishishni nazarda tutuvchi Harakatlar rejasি ishlab chiqilgan.

Endi yuqorida belgilangan har bir maqsadga erish uchun belgilangan ustuvor vazifalar bilan tanishib chiqsak.

Birinchi maqsaddan kelib chiqib, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samaraliroq boshqarish imkonini yaratish maqsadida byudjet jarayoni ishtirokchilarining o‘rni va byudjet vakolatlarini qayta taqsimlash zarur.

Davlat byudjetining barqarorligi va daromadlarni prognoz qilish imkoniyatini oshirish, shuningdek samarali davlat siyosatini yuritish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun belgilangan maqsadlarga erishish uchun byudjet jarayonining barcha bosqichlarida vazirlik va idoralar faoliyatining o‘zaro muvofiqligi va hamkorligini ta’minlash yuzasidan zarur tadbirlarni amalga oshirish.

Davlat faoliyatining sezilarli qismi Davlat byudjeti jarayoni doirasidan tashqarida, ya’ni vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlarning bir qismi ularning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan, shuningdek davlat ishtirokidagi korxonalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Uzoq yillar davomida byudjetlarning darajalari o‘rtasida daromadlar va xarajatlarni o‘tkazish vakolatlari aniq mustahkamlaganligi sababli mahalliy hokimiyat organlarida byudjet mablag‘larining samaradorligi va natijadorligini oshirish uchun etarli rag‘batlantiruvchi omillar bo‘lmagan.

Bundan tashqari, ayrim davlat korxonalari faoliyatining samaradorligi pastligiga qaramasdan iqtisodiyotda davlatning sezilarli ishtiroki saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirishga yo‘naltirilgan davlat korxonalari faoliyatida tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda taklif etiladigan islohotlar byudjet ustuvorligini ta'minlash va Davlat byudjeti darajalari o'rtasida majburiyatlarni ajratish hisoblanadi.

Davlat byudjetining to'liqligi, ishonchliligi va Davlat byudjetining strategik yo'naltirilganligini oshirish maqsadida barcha davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'larni Davlat byudjetiga qo'shish choralarini ko'rish, shuningdek, byudjet hisobotida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining konsolidatsiyalashgan jami moliyaviy ko'rsatkichlarini yagona shaklda taqdim etish zarur.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. 2020 yil
2. Jumaniyazov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109-116.
3. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.
4. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.

**УЗУМЗОР ВА ОЛМАЗОР БОҒЛАР ТУПРОҚЛАРИНИНГ СУВЎТЛАРИ****Турсунова Ш.А.<sup>1</sup>, Исмонова Г.Ш.<sup>2</sup>**<sup>1</sup>*Кўқон давлат педагогика институти*<sup>2</sup>*Андижон давлат университети*

**Аннотация:** Мақолада узумзор ва олмазор боғлари типик бўз тупроқларининг 0-5см юзасида харорат  $17^{\circ}\text{C}$ , 20-25см чуқурликда  $16^{\circ}\text{C}$ , 45-50см қатламда  $15^{\circ}\text{C}$ , намлиқ 30% даражада бўлган шароит бўлган тупроқ намуналарида узумзорлардан 58, олмазорлардан 46 тур ва тур хиллари аниқланганлиги ҳақида маълумотлар берилган.

**Калит сўз:** Узумзор, олмазор, тупроқ сувўтлари, тур ва тур хиллари, бўз тупроқ.

Узумзор ва олмазор боғлар тупроқларидан намуналар олишимизда типик бўз тупроқлардаги сувўтлар ҳақида маълумотларни тўла холда олишга эътибор каратдик. Узумзор 10 гектар, олмазор 14 гектардан иборат. Ҳар иккала боғ дараҳтлари вегетация даврида тўрт марта суғорилади. 2 марта трактор воситасида қатор оралари юмшатилади. Узумзор ўғитланади, унинг тупроғининг юзаси сернам.

Тупроқ намуналари 0-5см юзасида харорат  $17^{\circ}\text{C}$ , 20-25см чуқурликда  $16^{\circ}\text{C}$ , 45-50см қатламда  $15^{\circ}\text{C}$ , намлиқ 30% даражада олинди. Ҳар бир участкадан хайдалган қаватдан ва унинг остки қисмидан иккитадан намуна олдик. Бу тупроқ намуналарда узумзорлардан 58, олмазорлардан 46 тур ва тур хили аниқланди. Аниқланган жами тупроқ намуналаридаги турлар сонидан 17 форма узумзор ва олмазор тупроқларида қайд этилди. Улар:

Cylindrospermum licheniforme	Oscillatoria amoena
Plectonema angustatum	Plectonema puteale f. edaphicum
Chlorococcum humicola	Characium naegelii
Chlorella vulgaris	Scotiella levicostata
Microspora tumidula	Bumillariopsis brevis
Cyclotella kuetzingiana	Synedra ulna var. fasciculata
Navicula atomus	Navicula exigua
Hantzschia amphioxys	Nitzschia amphibia
Nitzschia palea	

Узумзор ва олмазор тупроқларидан аниқланган сувўтларнинг умумий рўйхати хар иккала дала учун ўзига хос бўлиб чиқди. Культураларда *Merismopedia tenuissima*, *Gloeocapsa punctata*, *Nostok linckia f. muscorum*, *Phormidium foveolarum*, *Ph. frigidum*, *Lyngbya martensiana f. edaphyca*, *Chlorococcum humicola*, *Chlorella vulgaris*, *Chlorhormidium dissectum* ва *Tribonema elegans* яхши

ривожланди.олмазор тупроқлари учун *Nostoc commune f. sphaericum*, *Anabaena cylindrical f. hollerbachiana*, *Phormidium incinatum*, *Ph. corium*, *Chlamydomonas globose*, *Pinnularia silvatica* ва бошқалар характерли бўлди. Узумзор тупроқлари намуналари бўлган күлтураларда унинг хайдалган қатламининг 35см дан пастида 13 тур аниқланди. Улар:

<i>Gloeocapsa punctata</i>	<i>Lyngbya martensiana f. edaphica</i>
<i>Plectonema puteale f. edaphica</i>	<i>Chlamydomonas elliptica</i>
<i>Chlamydomonas gloeogoma</i>	<i>Chlorococcum humicola</i>
<i>Chlorella vulgaris</i>	<i>Chlorhormidium nitens</i>
<i>Ulothrix variabilis</i>	<i>Heterothrix bristoeiana</i>
<i>Navicula atomus</i>	<i>Hantzschia amphioxys</i>
<i>Nitzschia palea</i>	

Олмазор тупроқларини хайдалган қаватини остидан 11 тур хиллари аниқланди.

Улар:

<i>Anabaena variabilis</i>	<i>Plectonema puteale f. edaphica</i>
<i>Chlamydomonas globose</i>	<i>Chlorococcum humicola</i>
<i>Navicula atomus</i>	<i>Navicula minima</i>
<i>Hantzschia amphioxys</i>	<i>Hantzschia amphioxys f. capitata</i>
<i>Nitzschia amphibia</i>	<i>Nitzschia palea</i>

*Chlorhormidium dissectum* ва *Tribonema elegans* фақат узумзор тупроқларидан аниқланди холос. *Nostoc commune f. sphaericum* фақат олмазор тупроғида қайд этилди. Улар бошқа намуналарда қайд этидмади.

Узумзор тупроқларидан аниқланган жами сувўтлар рўйхатини келтирилади:

#### Cyanobacteria бўлими

<i>Merismopedia tennisima</i>	<i>Microcystis pulvorea f. minor</i>
<i>Gloeocapsa punctata</i>	<i>Gloeocapsa turgida f. subnuda</i>
<i>Nostoc punctiforme f. popularum</i>	<i>Nostok linckia f. Muscorum</i>
<i>Anabaena minutissima</i>	<i>Anabaena variabilis</i>
<i>Cylindrospermum licheniforme</i>	<i>Scytonema ocellatum</i>
<i>Gloethrichia natans</i>	<i>Oscillatoria amoena</i>
<i>Phormidium angustissimum</i>	<i>Phormidium foveolarum</i>
<i>Phormidium frigidum</i>	<i>Phormidium molle</i>
<i>Phormidium tenue</i>	<i>Lyngbya martensiana f. edaphicum</i>
<i>Plectonema boryanum f. hollerbachiana</i>	<i>Plectonema puteale f. edaphica</i>

#### Chlorophyta бўлимидан

<i>Chlamydomonas elliptica</i>	<i>Chlamydomonas gloeogoma</i>
<i>Chlamydomonas speciosa</i>	<i>Chlorococcum humicola</i>
<i>Chlorococcum infusionum</i>	<i>Dictiococcus irregularis</i>
<i>Characium naegelii</i>	<i>Characium strictum</i>

<i>Chlorella mucosa</i>	<i>Chlorella vulgaris</i>
<i>Scotiella levicostata</i>	<i>Ankistrodesmus falcatus f. ferrestris</i>
<i>Coccomyxa dispar</i>	<i>Scenedesmus olicuus var. alternans</i>
<i>Scenedesmus quadricanda</i> var. <i>africanas</i>	<i>Coccomyxa solorinae</i>
<i>Microspora tumidula</i>	<i>Chlorhormidium dissectum</i>
<i>Chlorhormidium nitens</i>	<i>Ulothrix variabilis</i>

**Xanthophyta бўлимидан**

<i>Botrydiopsis eriensis</i>	<i>Bumillariopsis brevis</i>
<i>Heterothrix baristociabra</i>	<i>Tribonema elegans</i>

**Bacillariophyta бўлимидан**

<i>Cyclotella kuetzingiana</i>	<i>Diatoma vulgarize</i>
<i>Synedra tabulata</i> var. <i>fasciculata</i>	<i>Synedra ulna</i>
<i>Navicula atomus</i>	<i>Navicula exigua</i>
<i>Navicula exigua</i>	<i>Navicula minuscula</i>
<i>Navicula minima</i> var. <i>atomoides</i>	<i>Navicula pupula</i>
<i>Navicula seminulum</i>	<i>Hantzschia amphioxys</i>
<i>Nitzschia amphibia</i>	<i>Nitzschia denrylicula</i>
<i>Nitzschia microcephala</i>	<i>Nitzschia palea</i>

Олмазор тупроқларидан аниқланган сувўтлар турларининг рўйхатини келтирамиз.

**Cyanobacteria бўлими**

<i>Gloeocapsa minuta</i>	<i>Nostoc punctiforme</i>
<i>Nostoc commune</i> f. <i>sphaericum</i>	<i>Anabaena cylindrical f. hollerbachiana</i>
<i>Anabaena variabilis</i> f. <i>rotundospora</i>	<i>Cylindrospermum licheniforme</i>
<i>Calothrix elenkinii</i>	<i>Oscillatoria amoena</i>
<i>Oscillatoria brevis</i>	<i>Phormidium angustissimum</i>
<i>Phormidium corium</i>	<i>Phormidium valderiae</i> f. <i>majus</i>
<i>Schizothrix lardacea</i>	<i>Plectonema puteale</i> f. <i>edaphicum</i>

**Chlorophyta бўлимидан**

<i>Chlamydomonas globosa</i>	<i>Chlorococcum humicola</i>
<i>Dictiococcus mucosus</i>	<i>Characium naegelii</i>
<i>Characium ovatum</i> f. <i>tenuis</i>	<i>Chlorella ellipsoids</i>
<i>Chlorella vulgaris</i>	<i>Scotiella lericostata</i>
<i>Ankistrodesmus convolutes</i>	<i>Scenedesmus quadricanda</i>
<i>Microspora tumidula</i>	<i>Stichococcus minor</i>
<i>Stichococcus variabilis</i>	

## Xanthophyta бўлимидан

Pleurochrlis magna

Bumillariopsis brevis

## Bacillariophyta бўлимидан

Cyclotella kuetzingiana	Tabellaria flocculose
Synedra amphicephala	Synedra tabulate var. fasciculata
Achnanthes linlaris	Navicula atomus
Navicula minima	Navicula muralis
Navicula silicae	Navicula radiosa
Pinnularia appendicularia var. budensis	Pinnularia sylvatica
Rhepolodia gibba	Hantzschia amphioxys
Hantzschia amphioxys f. capitate	Nitzschia vermicularis
Nitzschia palea	

Хулоса қилиб айтганда узумзор ва олмазор тупроқларидан аниқланган сувўтларнинг умумий рўйхати хар иккала дала учун ўзига хос бўлиб чиқди. Олмазор тупроқларини хайдалган қаватини остидан 11 тур ва тур хиллари аниқланди. Тупроқлари учун *Nostoc commune f. sphaericum*, *Anabaena cylindrical f. hollerbachiana*, *Phormidium incinatum*, *Ph. corium*, *Chlamydomonas globosa*, *Pinnularia sylvatica* ва бошқалар характерли бўлди.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Gollerbakh M.M., Shtina E.A. Soil algae. // L.: Nauka, 1969. 228 p.
2. Tojiboev Sh.Zh. Algae of virgin soils of the Tashkent region and some biochemical features /Dissertation of Candidate of Biological Sciences. - Tashkent, 1973. - p. 45-46.
3. Мамасолиев С.Т. Связь экологической оценки городского региона с почвенными водорослями (на примере г.Андижана)// Приоритетные направления развития науки и образования сборник статей в международной научно-практической конференции, состоявшейся 23 января 2019г. в г. Пенза
4. Мамасолиев С.Т., Иброхимова Г.А., Дехканов М.Ш. Градиент высоты фитоценотического строения групп водорослей // Молодые учёные России сборник статей VI всероссийской научно-практической конференции, Состоявшейся 7 апреля 2021 г. в г. Пенза
5. Mamasoliev S.T., Muminova R.N. "Soil algae of the industrial zone (on the example of andijan)," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 8, Article 12. 2019
6. Tursunova Sh.A. Mamasoliev S.T. Algoflora of typical gray soils for continuous tillage// Epra International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 10 | October 2021
7. Mamasoliyev S.T. Types of algae in the soil of the city region (on the example of the Andijan) Science and world International scientific journal, № 12 (64), 2018, Vol. II

**YALPIZ O'SIMLIGINING YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI VA FOYDALI  
XUSUSIYATLARI**

*Siddiqova Gulziraxon Saydullo qizi*  
*Farg'ona davlat universiteti talabasi*  
*Mamadaliyeva Durdonaxon Obidjon qizi*  
*Farg'ona davlat universiteti talabasi*  
*Hamroqulov Diyorbek Komiljon o'g'li*  
*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yalpiz o'simligining yetishtirish texnologiyasi va foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yalpiz o'simligi, foydali xususiyatlari, ko'p yillik xushbo'y ot, Osiyo yalpizi, barg, gul

Yalpiz — labguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, dorivor va efirmoyli o‘simlik. Shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20—25 turi tarqagan. Yevropa mamlakatlari, AQSH, Ukraina, Belarus va Shimoliy Kavkazda Ya.ning taxir (achchiq) Ya. va jingalak Yalpiz, Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqalar mamlakatlarda dalayoki suv Ya. turlari ekiladi. O‘zbekistonda 4 turi: suv Yalpiz ,osiyo Yalpizi, taxir (achchiq) Yalpiz va jingalak Yalpiz yovvoyi holda o‘sadi, Poyasi tik shoxlangan, bo‘yi 25—100 sm gacha, barglari qarama-qarshi joylashgan, rombsimon, nashtarsimon yoki tuxumsimon, gullari chala soyabonsimon to‘pgulga yig‘ilgan, binafsharang. May—oktabrda gullaydi. Yalpiz yorug‘sevar, namsevar o‘simlik. Barglarida 2,5—3 %, gullarida 4—6 %, poyasida 0,3 % mentol (validolning tarkibiy qismi)ga boy bo‘lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar bor. Tibbiyotda Yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) va damlamasidan ko‘ngil ayniganda hamda o‘t haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. Barglari va poyasidan olingan yalpiz moyi parfyumeriya, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda, bahorda yangi chiqqan barglari oshko‘k sifatida ishlatiladi. Vegetativ (bahorda ildizini bo‘lib ekish) yo‘li bilan ko‘paytiriladi. O‘zbekistonniig barcha viloyatlarida nam yerlarda, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi[1].

Qalampir yalpiz yovvoyi holda uchramaydi. Uni *Mentha aquatica* L. bilan *Mentha spicata* Gilib. ning o‘zaro chatishishidan vujudga kelgan, deb faraz qilinadi. Qalampir yalpiz asosan Ukrainada (Poltava, Chernigov, Kiev, Sumsk va Jitomir viloyatlarida), Qrimda, shuningdek, Krasnodar o‘lkasida, Voronej viloyatida, Belarus va Moldova respublikalarida o‘stiriladi. Qalampir yalpizning ikki tur xili bor: qora qalampir yalpiz va oq qalampir yalpiz. Oq qalampir yalpizning poya va tomirlari oq yashil, qora qalampir yalpizning poya va tomirlari esa qizil-binafsha rangda bo‘ladi. Dorivor

mahsulot sifatida asosan qora qalampir yalpiz tur xili o'stiriladi. Yalpizning oq tur xilining hidi nozik va yoqimli bo'lgani uchun u parfyumeriya (atir-upa) va oziq-ovqat sanoati uchun o'stiriladi. Ko'p yillik, bo'yi 30-100 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, to'rt qirrali, tuksiz yoki siyrak tukli. Bargi oddiy, cho'ziq tuxumsimon yoki lansetsimon, o'tkir uchli, qirrasi o'tkir arrasimon. Barglar poyada qisqa bandlar bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, pushti, och binafsha yoki qizil-binafsha rangda, poya va shoxlar uchida g'uj joylashgan boshoqchasimon gul to'plami hosil qiladi. Gulkosachasi naychasimon, binafsha rangli, besh tishli bo'lib, meva bilan birga qoladi. Guljisi bir oz qiyshiq, voronkasimon, to'rt bo'lakli (bosqqa labguldoshlardan farqi), otaligi 4 ta, onalik tuguni 4 bo'lakli, yuqoriga joylashgan. Mevasi kosachabarg bilan birlashgan 4 ta yong'oqcha. Qalampir yalpiz bargi preparatlari, efir moyidan tayyorlangan yalpiz suvi va nastoykasi ko'ngil aynishiga va qayt qilishga qarshi hamda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashda ishlatiladi. Bundan tashqari, yalpiz suvi og'iz chayqash va miksturalar ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Efir moyidan ajratib olingan mentol quloq, burun, nafas yo'llari kasalliklarida hamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladi. Mentoldan bosh og'rig'ini qoldiradigan migren qalami tayyorlanadi. Mentol preparati - validol, ko'krak qisish (stenokardiya) kasalligida ishlatiladi. Efir moyi va mentol oziq-ovqat hamda parfyumeriya sanoatida ham qo'llaniladi.

Dorivor preparatlari. Bargidan damlama, efir moyidan yalpiz suvi, nastoyka tayyorlanadi; mentol migren qalami va validol (izovalerian kislotaning mentol bilan hosil qilgan murakkab efiridagi mentolning 25-30% li eritmasi) tarkibiga kiradi.

Qalampir yalpizni donli ekinlar maydonlariga joylashtiriladigan bo'lsa, hosili yig'ishtirib olingandan so'ng begona o'tlar xususiyatiga, agrotexnik talablariga ko'ra, 10-15 sm chuqurlikda diskali boronalar bilan ag'darmay yumshatiladi. Oradan 15-20 kun o'tgach kuzda gektariga 15-20 tonna mahalliy o'g'it yoki komiest va 40-50 kg dan sof fosforli o'g'itlar kirgizib 27-30 sm chuqurlikda haydab qo'yiladi. O'simlikni ekish oldidan tuproqning zichligiga va begona o'tlarning paydo bo'lishiga qarab yerkarni kultivatsiya va boronalab qo'yiladi. Qalampir yalpiz ildizpoya qalamchalardan ko'paytiriladi. Ekishdan oldin 8-10 sm uzunlikda qalamchalar tayyorlanadi. Erta bahorda qalamchalar (mart- aprel oylarida) 10 sm chuqurlikda tayyorlangan, yaxshi namangan jo'yaklarga bir-biridan 20- 25 sm masofada maxsus seyalkalarda yoki qo'lda ekiladi. Qator oralari 60 va 45 sm dan qilib, har bir uyaga 2 tadan o'simlik joylashtiriladi va bir hektar yerga o'rtacha 5-6 sentner ildizpoya qalamchalari zarur bo'ladi.

### Xulosa:

Yalpiz juda foydali xususiyatlarga ega. Ishtaxa ochuvchi, yurak qon tomir kasalliklarida foydali.

Qalamchalar ekilgandan so‘ng sug‘orish egatlari olinadi va tuproq to‘yinguncha sug‘oriladi. Ko‘chatlar ekilgandan so‘ng 4-5 kun o‘tgach ko‘karmay qolgan maydonlarga qayta ekish lozim bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Murdaxaev Yu. M. Medicinal culture in Uzbekistan, Tashkent, 2001.
2. Murdaxayev Yu.M. Medicinal plants found in Uzbekistan. Tashkent, 1990.
3. Musayev BS "Fertilizer application system", Tashkent, 1998.
4. Musayev B. S. Agrochemistry. Tashkent, 2001
5. Reference book on medicinal cultures. Voronezh, 1963.
6. TTurova A.D.Sapojnikova E. N. Medicinal rasteniya SSSR i ix primenenie. Moscow, 1982.
7. Kholmatov X.X. etc. Russian-Latin-Uzbek Dictionary of Medicinal Plants, Tashkent, 1992.
8. Хайдаров М. М., Турдалиев А. Т. Саминов ААУ Энергетические особенности аминокислот в светлых сероземах //Тенденции развития науки и образования. – 2021. – №. 80-3. – С. 45-47.
9. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012047.
10. Saminov A., Ismoiljonova D., Rahmataliyeva M. DORIVOR SUT QUSHQO’NMAS OSIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNDAN OQILONA FOYALANISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D4. – C. 155-159.
11. Anvarjonovich D. Q., O'g'li S. A. A., O'g'li X. The importance of fungicides and stimulants in preparing seed grains //Asian journal of multidimensional research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 415-419.
12. Saminovich M. B., Gulomatovna X. N., O‘G‘Li S. A. A. Petrushka o ‘simligini yetishtirish va undan oqilona foydalanish //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 259-262.

## AGROKIMYO FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Iminchayev Raxmatjon**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi*

**Ma'ruffjonov Javohir**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Agrokimyo fani - bu qishloq xo'jalik ekinlarining rivojlanish jaryonida o'simlik, tuproq va tuproqqa kiritiladigan o'g'itlarning o'zaro ta'sirini hamda tuproq muhitida ketadigan modda almashinish jarayon- larini, hosildorlikni oshirish, uni sifatini yaxshilash uchun qo'llaniladigan o'g'itlarning ustidan har tomonlama izlanishlar olib boradigan fandir. Hozirgi vaqtda agrokimyo fani agronomiya sohasidagi fanlarga nisbatan munosib yuqori o'rinni egallagan fandir.

**Kalit so'zlar:** Agrokimyo, o'simliklar, o'simlikshunoslik, ekin, dala, yuqori hosil, mineral o'g'itlar, organik moddalar, fosfor, kaliy, azot.

O'simlikshunoslikda mineral o'g'itlarni qo'llash, mahsulot sifatini yaxshilash, mo'l-ko'l mahsulot yetishtirishda eng samarali omil ekanini agrokimyo fanining yutuqlaridan ko'rish mumkin. Jahon ilmiy adabiyotlarida keltirilishicha, jahon dehqonchiligi tajribasidan olingan dalillar ekinlarning hosildorligi ko'p jihatdan tuproqqa kiritiladigan o'g'itlar miqdori bilan uzviy bog'langanligidan darak beradi. Ekinlardan yuqori hosil olishning asosida, ularning o'sishi rivojini maqsadli boshqarishda ham asosiy omil, o'z vaqtida har bir o'simlik (ekin) uchun ishlab chiqilgan me'yorda tuproqqa o'g'itni kiritish eng muhim tadbir hisoblanadi. Shunday qilib, agrokimyo qishloq xo'jaligini deyarli ko'p qismini paxtachilik, sabzavotchilik, mevachilik va boshqalarini kimyolashtirish -- ekinlar hosildorligini oshirish va sifatini yaxshilashning muhim vositasi bo'libgina qolmay, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirishning, albatta iqtisodiy tomondan eng samarali yoiidir, desak mubolag'a bo'lmas. Yuqorida zikr qilinganlarning isboti uchun agrokimyo fani tarixiga e'tibor qaratib, quyidagi faktlarni keltiramiz. Agar agrokimyo fanini rivojlanish tarixiga nazar tashlasak tuproq hosildorligini oshirish to'g'risidagi bilimiar Rim imperiyasiga borib taqaladi. O'sha davrlarda tuproq unumdorligini oshirishdan maqsad ko'k- yam-yashii o'simliklarning massasi tuproqqa solingan va ko'ko'g'it nomini olgan. Qadim Gretsiyada -o'simliklarning hayoti uchun tuproq, yorugiik, harorat, suv va havo kerak, deb aqi yuritganlar va to'g'ri xulosa chiqorganlar. 1656-yili ingliz kimyogar olimi Glauberning olib borgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, tuproqqa selitrani aralashtirish o'simliklarning hosildorligini oshirishga o'ta ijobjiy ta'sir etishi uning asarlarida ko'rsatilgan. 1775-yili Lavuaze bir yangilikni, ya'ni havoda azot mavjudligini aniqlaydi, va o'simliklarning hayoti havo bilan hamda ildizi orqali ozuqa moddalarni yerdan

shimib olib, ularni o'simlikning rivojlanishiga ta'sir etishi to'g'risida fikr yuritgan.Rus olimi I.M.Komov (1750-1792-y) o'zining dehqonchilik nomli kitobida unumsiz tuproqlarga go'ng solib o'g'itlashni tavsiya etib, go'ng to'g'risida quyidagi fikrlarni aytadi: Go'ng ham o'g'it sifatida, ham tuproq namligini yaxshilashda, tuproq tuzilishini (strukturasini) yaxshi tomonga o'zgarishga imkon tug'diradi. Go'ng tuproqni o'simliklar uchun oziqaviy tarkibini boyitadi, uning tarkibidagi organik moddalar biokimyoiy jarayonlar ta'sirida parchalanib, rivoj topayotgan ekinlar hosildorligini oshiradi (A.T.Bolotov, 1738—1833-y).Shuni takidlash zarurki, M.B.Pavlov (1793-1840-y) tuproqni o'g'itlash, uning unumdorligini oshirish deganda tuproqni fizik holatini yaxshilanishini, organik moddalarning parchalanish jarayonini tezlashi- shini aytgan va nordon muhitni yo'qolishga imkoniyat tug'dirishini nazarda tutgan.Tarixan, XIX asr oxirlarida (1789-y) Ryunkertom ajoyib fikmi o'rtaga tashlab, quyidagilarni izhor etadi, ya'ni har bir o'simlik o'zini o'sishi, rivoji uchun alohida tarkibga ega bo'lgan tuproqni tanlaydi, shundagina u unumli hosilga ega bo'ladi. Lekin, bir xil ko'p-yillik o'simlik uchun yerdan foydalanish yer quvvatini pasaytirishga olib boradi, deb haq gapni aytgan.1836-yili fransuz olimi Bussengo birinchilardan bo'lib tuproqshu- noslikda ozuq moddalarni aylanish jarayoni to'g'risida fikmi olg'a surib, azot moddasining tuproqda dukkakli o'simliklar tomonidan to'planishi va oziqlanishi to'g'risidagi «azotli» ozuqa nazariyasini oldinga surib, tuproqshunoslikda azot moddasiga birinchi darajada ahamiyat berib, beda va dukkakli o'simliklarni almashlab ekish tuproqni azotli balansini yaxshilashiga va yekinlarni hosildorligini oshirishga sabab bo'ladi, deb uqtirdi.Uning fikricha, dukkakli o'simliklar azotni atmosfera havosidan o'zlashtiradi hamda bir vaqtning o'zida o'simiik uchun havodagi karbonat angidridi ham ozuqa. hisoblanadi.1840-yilda nemis olimi Libixning «Химия в приложении к земледелю и физиология» («Kemyoning dehqonchilik va fiziologiyaga tatbig'i» nomli kitobini chop etilishi o'simlik dunyosini oziqlanishi to'g'- risidagi fikrlarda butunlay yangi burilish yasadi, ya'ni o'simliklar tuproq- dagi mineral moddalar bilan oziqlanishi natijasida tuproqning unum- dorligi pasayadi. Shuning uchun ham Libix tuproq mahsuldorligini oshirish uchun uni mineral o'g'itlar bilan boyitish nazaryasini ofg'a surdi. Demak, tuproqdan yo'qolgan mineral ozuqalar tuproqqa mineral o'g'itlar sifatida qaytarilishi zarur ekanligini aytadi.Keyinchalik, K.A.Timiryazevni aytishicha, «Fanning eng ulug' qo'lga kiritgan yutug'i, bu tuproqga qaytarish to'g'risidagi ta'limotdir», - deydi.Yu.Libix tuproqshunoslik faniga yana bir yangilikni kiritdi. Tuproqni ozuq elementlar bilan ozishi va kambag'allashish jarayoni bir xil kechmaydi. Shuning uchun ham Yu.Libix kerakli bo'lgan kichik miqdor omilini yetishmasligiga eng oz miqdor «Qonun»ini yaratdi, ya'ni hosildorlik o'sha omilga bogiiq ekanini bildirdi. Masalan, makkajo1- xorini o'stirishda azot yoki rux yetishmasa, unga qancha fosfor, kaliy va boshqa ozuq elementlarni tuproqqa qo'shmay hosildorlikni ko'tarib bo'lmaydi.1563-yil B.Palissi «Qishloq xo'jaligidagi turli tuzlar haqida traktat» nomli asarida: «Go'ngning

o‘g‘it sifatidagi ahamiyati va uning tarkibidagi somon va pichan qoldiqlarining chirishidan hosil bo‘ladigan tuzdir», - deb ta’kidlaydi. O‘z fikrlarini davom ettirib «Yakka ziroatchilik sifatida hosil bilan tuproqdan ozuqalarni chiqib ketishi natijasida uning hosildorligi pasayadi. Shu bois tuproqni o‘g‘itlash, biron-yil dam berish. hech bo‘lmasa, g‘alla somonlarini dalaning o‘zida yoqib yuborish lozim», degan xulosaga keladi. Rossiyada XX asrning 60-70-yillaridan boshlab o’simliklarni oziqlantirishda o‘g‘itlardan foydalanish choratadbirlari amalga oshirila boshlandi. Bu borada A.N.Engelgardni, D.I.Men- deleyevni, P.A.Kostichevni, K.A.Timiryazevni sistemali ravishaa olib borgan ilmiy izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. Professor A.N.Engelgardni «Ziroatchilikda kimyo fani asoslari»ni katta ahamiyat kasb etishini ma’rifat orqali aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borishda yana yerga o’simliklarni oziqlantirish uchun o‘g‘it solish zarurligini uqtirishda katta targ‘ibot ishlarida jonbozlik qildi. U, yerlarni ohak va mineral o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlashni targ‘ibot qildi. Smolenskiy viloyatida fosfor unidan o‘g‘it sifatida foydalandi. Engelgard, yerlarni ohak va mineral o‘g‘itlarni organik o‘g‘itlar bilan birgalikda ishlatish tarafdori bo‘lib qolmadni, balki bu sohada katta targ‘ibotchima’rifatchi bo‘lib ham qoldi. 1834-1907-yillarda rus kimyogari V.I.Mendeleyev, dehqonchilik ishlari bilan shug‘ullanib qator gubemalarda: Moskva, Smolensk, Peterburg, Simbiriyada tajriba o‘tkazish stansiyalarini tashkil qildi. U, o‘zining ma’ruzalarida agrokimyo fani asoslarini yaratishda mineral o‘g‘itlar ustida tajribalar o‘tkazish yo‘li bilan sun’iy yaratilgan o‘g‘itlarni sinash kerakligini uqtirdi. D.I.Mendeleyev dehqonchilikni rivojlantirish uchun yer unumdarligini oshirishni har tomonlama qo‘llab- quvvatladi. U Rossiyaning turli geografik mintaqalaridagi katta dala maydonlarida tajriba o‘tkazib, o‘g‘itlar samaradorligini sinovdan o‘t- kazdi. Turli iqlimli tuproqli mintaqalarda dala sharoitida obyektiv qonu- niyatga asoslangan dalillar chuqur statistik tahlil qilindi va haqqoniylar ilmiy ma’lumotlar e’lon qilindi. D.I.Mendeleyev o‘zining Peterburg ayollari Oliy kursida o‘qigan ma’ruzalarida (1880-y) Yustus Libixning «To‘la qaytarib berish» qonunini tahlil qilib, ziroatchilik rivoji bevosita kimyo va o‘ git ishlab chiqarish sanoati taraqqiyoti bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatib berdi. Shuni ta’kidlash zarurki, agrokimyo nazariyasi asosini yaratishda prof. K.A.Timiryazevning hissasi juda katta. U fotosintez va o’simliklarni mineral ozuqlanishga doir olib borgan qimmatbaho ilmiy izlanishlari katta ahamiyat kasb etdi. Ilmiy izlanishlar evaziga olingan dalillar, ularning tahlili agrokimyo fani nazariy asosini yaratishda katta hissa bo‘ldi. Hozirgi zamон agrokimyosida K.A.Timiryazev yaratgan nazariy va amaliy uslublardan hozirda ham foydalilanadi. Mazmunan dehqonchilikni rivojlantirishda eng asosiy ilmiy masala ekinlarni ekishda yeming, o’simliklarning o‘ziga xos tomonlariga e’tibomi qaratish hamda olingan dalillarni sinchkovlik bilan hisobga olish, o‘stirilgan madaniy o’simlik (ekin)larni tabiiy iqlim sharoitga mos kelishini aniqlash - asosiy talab hisoblandi. Agrokimyo fani nazariyasini kengaytirib, chuqurlashtirib, fanni o’simliklar fiziologiyasi

bilan chambarchas bog‘liqligini unutmaslikni eslatib o‘tadi. D.N.Pryanishnikov (1865-1948-y) o‘simliklarda ozuqaviy moddalarni, jumladan azot moddalari almashinuviga doir muammolar ustida izlanishlar olib bordi, o‘rgandi, uning natijasi bo‘lib o‘simliklarning ammiak va nitrat shaklidagi azot bilan ozuqlanish nazariyasi yaratildi. U olim D.I.Mendeleyevdan 57 yil keyin sobiq Ittifoqning 300 ta hududlarida 3800 tadan ortiq dala tajribalarini o‘tkazdi va O‘zbekiston tuproqlarida ham mineral o‘g‘itlar yaxshi samara berishini isbotladi. D.N.Pryanishnikov boshchiligidagi o‘simliklarni fosfor tuzlari bilan oziqlantirish masalalariga tegishli ilmiy izlanishlar bajarildi, natijada fosforitlar tarkibidagi fosfordan foydalanish hamda fosforit unlarini ishlatish muammolari ilmiy asosda yechimini topdi. Uning shogirdlari Solikam konidan kaliyli tuzlarini o‘zlashtirib, o‘simliklarni oziqlan- tirishda foydalanish sinovini o‘tkazdi. Ulardan tashqari D.N.Pryanishnikov - mikroelementlarni o‘simliklarga ta’sirini o‘rganishni yo‘lga qo‘ydi. O‘simlikni azot bilan oziqlan- tirishda ammoniy tuzlaridan foydalanish uchun ammoniy tuzlarini o‘rga- nishga katta e’tibor berdi. Qizig‘i shundaki, ammoniy tuzlarini deh- qonchilikda ishlatish hech qanday ikkilamchi zararli oqibatlarni keltirib chiqarmasligini isbotlab berdi. Olim oqsil moddalari ustida izlanishlar olib borib, ularni parchalanishi oqibatida aminokislotalar hosil bo‘lishini, ayniqsa ko‘p miqdorda asparagin kislotasi hosil bo‘lishini, keyinchalik ulardan ammiak ajralib chiqishini isbotladi. Shu ilmiy izlanishlardan azot va karbonsuvlardan almashinishida o‘zaro bog‘liqlik borligi aniq bo‘ldi. D.A.Pryanishnikov ammiak va azot nitratni kelajakdagagi «Azotli o‘g‘it!ar» deb bashorat qildi. Olimning aktiv qatnashishi natijasida bir qancha ilmiy maskanlar ochildi: jumladan Butunittifoq o‘git, agrotexnika va agrotaproqshunoslik ilmiy tekshirish instituti, Markaziy shahar sanoat ilmiy tekshirish instituti ochildi. D.N.Pryanishnikovning Agroximiyaga bag‘ishlangan «O‘simliklar hayotida va tuproqshunoslikda azot» nomli fundamental asarlari chop etildi. Olim agroximiklar mакtabini yaratdi, hozirgi vaqtgacha agroximiya fani bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi juda katta maskanlarga aylandi. Qishloq xo‘jalik agrar universitetida minglab talabalar o‘qitilyapti, ya’ni kelajak mutaxassislarini tayyorlash va ularni qayta malakasini oshirish maskanlari Rossiyada va sobiq ittifoqdosh mamlakatlarida ham faol ish ko‘rsatmoqda. Olim o‘zining «Maltus va Rossiya» asarida (1927 y) fandagi reaksiyon oqimlarga keskin zarba berdi va agrokimyo, dehqonchilik hamda o‘simlikshunoslik fanlarining yutuqlari asosida, oziq-ovqat mahsulotlari miqdorini yanada tez fursatlar bilan ko‘payib borayotganini ko‘rsatdi. D.N.Pryanishnikov V.R.Vilyams tomonidan ilgari surilgan dehqonchilikni «04 dalali» tizim mamlakatda don yalpi hosilini keskin pasaytirib yuborishini, almashib, ekishni to‘g‘ri tashkil qilish va o‘g‘itlardan unumli foydalanish asosi- dagina aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘la ta’minlash mumkinligini tasdiqladi. Akademik D.N.Pryanishnikov ta’limoti asosida chopiq talab ekinlar yetishtirishda mineral o‘g‘itlarni qo‘llash (ayniqsa, Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan maydon va

mintaqalarida) avval bitta boshoq o'sgan yerda uchta boshoq yetishtirish imkonini berdi va mintaqamizda dehqonchilikni yanadatezroq rivojlanishiga turki bo'ldi. Agrokimyo fanini Rossiyada va sobiq Ittifoq davrida o'zini katta ilmiy hissasini qo'shgan olimlar P.S.Kossovich (1862-1915-y.), K.K.Gedroys (1872-1932-y.), A. N.Lebedyansev (1878-1941-y.), P.G.Naydin (1893-1969-y), F. V.Turchin (1902-1965-y), V.M.Kleehkovskiy (1900-1972-y), Ya.V.Peyve (1906-1970-y), A V. Sokolov (1898-1980-y), T.N.Kulakovskaya (1919—1986-y) kabi bir qator tadqiqotchilar agrokimyo fanining rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. Masalan, P.S.Kossovich o'simliklar ammiak shaklidagi azotni to'g'ridan to'g'ri nitrat holatiga o'tmasdan ham o'zlashtira olishini isbotladi, yoki S.I. Volkovich apatit holatidagi xomashyoni qayta ishslash texnologiyasini yaratib, undan superfosfat olishni ishlab chiqdi. Olim o'sha davrda Rossiya mintaqasida topilgan fosfat xomashyosidan fosfat kislotasini ekstraksiya (ajratib olish) yo'li bilan olishni ishlab chiqdi, uning rahbarligida mineral o'g'itlar kimyosi va olish texnologiyasi sohasida katta ilmiy izlanishlar bajarildi. T.N.Kulakovskaya esa mineral va organik o'g:itlarning qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini hamda tuproq unumdorligini oshirishga ta'sirini o'rganib amaliyotda qo'llash tadbir-choralarini ishlab chiqdi. Natijada yer unumdorligi va hosildorligi ortdi, Bu tajriba va izlanishlar Belorusiyani iqlimi tuproqli geografik sharoitida ham o'tkazildi. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan turli mintaqalar sharoiti uchun ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar mamlakatni har bir regionida hosildorlikni ilmiy asosda ishlab chiqilgan uslublari turli xil don, sabzavot va boshqalardan olinadigan hosilni tobora ortib borishi xalqni oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishini ta'minladi. Oxirgi xulosa shuki, ekinlarni o'g'itlash hosildorlikni oshirishning asosiy omilidir. B.S.Musayevning fikricha, O'rta Osiyoning qadimgi dehqonchilik markazi Xorazimda miloddan avvalgi VI-V ming-yilliklarida yerlarni bostirib sug'orishga asoslangan o'ziga xos ziroatchilik madaniyati yuzaga kelgan. Nazarimizda" xorazmliklarning yerni bostirib sug'orishidan maq- sad yer tuzini yuvib, so'ngra dehqonchilikda turli xil ekinlarni ko'kartirishga va hosil olishga erishganlar. Hozirgi vaqtida ham Respublikamizning ko'pchilik hududlarida yerlarni sho'rxokligini yuvib, so'ngra turli xil ekinlarni, ayniqsa paxta ekishda qo'l keladi. Keyinroq Zarafshon vodiysi va Buxoro hududida dehqonchilik bilan shugullangan ajdodlarimiz bostirib sug'orish o'rniga egatlardan foyda- lanib, o'simliklarni shunday uslublar bilan namliklarga to'yg'izganlar. Chunki o'simlik uchun, ularning rivoji uchun faqat tuproq emas, balki namlik kerakligini tushunib yetganlar. Keyinchalik yerlar unumdorligini oshirishda birmuncha murak- kabroq mehnat quollariga, ya'ni belkurak, ketmon ishlata boshlaganlar, mahalliy go'ng o'g'itlardan foydalanib hosildorlikni oshirganlar. Turli xil ekinlarga go'ng, kul, xazon ishlatib, tuproqlar tarkibini boyitganlar. Bir necha-yillar davomida katta yer maydonlaridan foydalanish uchun yerlarni qo'sh ho'kiz qo'shilgan so'qalar yordamida haydalishi, poda- lardan qoramollar, qo'y-echkilar sonini ortib

borishi, go'nglardan foyda- lanishni rivojlantirgan ho'kiz va otlardan foydalanib shudgorlarni haydash tobora yo'lga qo'yila boshlangan. Dehqonchilikda go'ng, mahalliy o'g'itlardan foydalanish kengroq tus ola boshlab, qadimiy sug'oriladigan tuproqlar tarkibini o'g'itlar ishlatib oziq moddalar bilan boyitganlar. Tuproq tarkibidagi gumus moddasi (chiqindilar) go'nglar bilan boyitilan, azot ushlovchi tuproqga moddalar kiritib boyitgan. Masalan, yerga chiqindilar, go'nglar solib, ulardagi gumus miqdorini 0,80-1,0 foizgacha yetkazishgan. O'rta Osiyoda sug'or- ma dehqonchilik tarixi 7-8 ming yillarni tashkil qilgani holda, ekinlarni oziqlanishi va o'g'itlardan foydalanishga oid ma'lumotlar hozirgi kungacha yaxshi o'rganilmagan. Ammo, (973-1048-y)da yashagan buyuk olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy o'zining mashhur, «Kitobul jamoxir fi marifotil javohir» asari ona jins tuproq xossalalarini o'rganish bo'yicha saqlanib qolgan asosiy manba, qo'llanma hisoblanadi. U, asarda tuproq ona jins- ning nurashidan hosil bo'lishi, uning mineral qismi tabiat va o'simliklar hayotida muhim o'rin tutishi ta'kidiangan. So'ogra, XV asrda yozilgan «Ziroatnama» («Fan-i-kishi ziroda») dehqonchilikga oid ming-yillik ma'lumotlar umumlashtirilgan. Asarda mahalliy o'g'itlar ekinlar hosildorligini oshirishda muhim vosita ekanligini tushunib yetilgan, shuning uchun ham har bir oilada qo'y, echkilar, mollar ko'paytirilgan. Ayniqsa ularning go'nglarini tuproqga kiritilsa, ekinlar hosildorligini oshirishda asosiy omil ekaniga e'tibor qarata boshlangan. Ajodolarimiz «Nurini-maxlut» kompost-tayyorlash, ya'ni har xil chiqindilardan tuproq yoki torfda - chiritib tayyorlangan organik o'g'it, bunday o'g'itni go'ng, xazon, xashak, ariq yoki zovur cho'kma tuproqlari, chirigan qamish, eski tom tuproqlari, paxsa loyli devor bo'laklari, kul, achigan meva-chevalar aralashmalarini tuproq bilan ko'mib, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng chirigan chiqindilarni o'g'it sifatida foydalanganlar. «Ziroatnama»dan ilgariroq yozilgan «Dasturi kishvarzon» haqidagi kitobi kabi qimmatbaho asarlar ming afsuski, bizgacha yetib kelmagan. Tarixga nazar tashlasak, O'rta Osiyoga mineral o'g'itlar 1906-yilda keltirilib, ular ustida dastlabki ilmiy izlanishlar, amaliy tajribalarni R.R.Shreder, M.M.Busheyev va I.K. Negodnov tomonidan amalga oshirilgan. O'g'it qo'llash stansiyasini ilgari «Qovunchi» nomi bilan ataluvchi - hozirdagi Yangiyo'Ida ochilishi o'simliklarni o'g'it bilan oziqlantirish, u jarayonni o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini keng ko'lamda olib borishga imkon tug'dirdi. Stansiya faoliyatini yurgazish A.N.Qurbotov, D. A.Sabinin, E.A.Jarikov, B.P.Machigin va N.T.Chernov kabi taniqli tad-qiqotchilar nomi bilan bog'liqdir. Ular, O'rta Osiyo mintaqalari tuproq- larini o'rganib, birinchilardan bo'lib azotli o'g'itlarni tuproqga kiritib ijobjiy natijalar ko'rdilar va o'simliklarni haqiqatda mahsuldarligi ko'payganidan hamda hosildorligining oshishini guvohi bo'ldilar va o'g'itni tuproqga solib ijobjiy natijalarini isbotladilar.

### Xulosha:

Darhaqiqat, Respublikamizda agrckimyo fanining rivoji uning iqtisodiy, ijtimoiy hayotida katta ahamiyat kasb etdi, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Respublikamizda paxta

xomashyosini yetishtirishda, don mansulotlarini yuqori sentrda olinishida, mevada sabzavot mahsulotlarini mo‘lko‘l bo‘lishi ko‘p jihatdan mehnatkash xalqimizning xatti-harakatiga hamda agrokimyo fani yutuqlarini amaliyotda samarali qo‘lla- nishiga bog‘liqligi - bu bor haqiqat. Shu o‘rinda agrokimyo fanining turli sohalarini rivojlantirishda, olingan natijalarni amaliyotda qo‘llashda quyidagi olimlarning hissasi katta: Bular Protasov Pyotr Vasilyevich, Kaziyev Mixail Zavumanovich, Belousov

Mixail Aleksandrovich, Malinkin Nikolay Petrovich, Madraimov Ismat Shonazarovich, Piroxunov Teshaboy Piroxunovich, Zokirov Tojiddin

Solijanovich, Niyozaliyev Irisali Niyozaliyevich, Sattarov Jo‘raqul Sattarovich, Rixsiyev Xurshida Tursunovna, Ergashev Abdurahmon Ergashevich va boshqalar. Agrokimyo fanini rivoji tabiiy muhitning asosiy omili tuproq, suv, quyosh nuri va boshqalar bilan bog‘liqdir. Ammo hozirgi vaqtga kelib shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, mineral va boshqa o‘g‘itlarni haddan tashqari ko‘p ishlatalishi biosferada ekologik noqulayliklarni keltirib chiqarishda katta rol o‘ynamoqda. Ayniqsa qishloq xo‘jaligida ekinlarni turli xil zararli kasalliliklardan, viruslardan, hasharotlardan va boshqalardan asrash uchun ko‘p miqdorda zaharli kimyoviy moddalar ishlatish atrof-muhitni -ya’ni, biosferani ifloslanishiga oxir pirovardida odamlarga, turli xil foydali jonzotlarga o‘ta zaharli ta’siri natijasida biosferadagi ekologik holat, mutanosiblik jarayonlari izdan chiqmoqda. Demak, agrokimyo, biosfera, ekosistema va ekologiya masalalariga e’tibor berish va salbiy oqibatlar oldini olish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Protasov P. V., Niyozaliev I. N., Toirov T. 3., Paxtachilikdaagroximiya, T., 1981;
2. Zokirov T. S, Pochvenno-agroximicheskiye Osnovi xlopkovodstva, T., 1987.
3. I. N. Niyozaliev, T. Z. Toirov. Agrokimyo, T., 2010
4. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012047.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

## RANGTASVIR SAN'ATI VA UNING TURLARI

*Erkayeva Mehrinoz*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika institutining San'atshunoslik fakultetining  
Tas'viri san'at va muhandislik grafikasi 202 -guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rangtasvir san'ati va uning tarixi ,turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Rangtasvir, akvarel, guash, moybo‘yoq, manzara, taxta, karton, qog‘oz.

Rangtasvir — real borliqni, hayotni, voqealarni bo‘yoqlar vositasida mato, qog‘oz, taxta, kartonlarda tasvirlash demakdir.Rangtasvir asarlari moybo‘yoq, akvarel, guash, tempera va pastelda ishlanadi.Rangtasvir turiga moybo‘yoq va boshqa suvda eruvchi ranglar bilan materiallarga ishlangan manzara, turmush voqealari, jang manzaralari, tarixiy voqealar, jonsiz tabiat to‘plamlari (naturmort), odamlarning to‘la va yarim qomatlari, moybo‘yoq, akvarel, guash va boshqa bo‘yoqlar bilan ishlangan devoriy rasmlar, shuningdek, kinoteatr dekoratsiyalari uchun ishlangan rasmlar kiradi. Umuman, bo‘yoq bilan ishlangan barcha turdag'i rasmlar rangtasvir yoki nafis san'at asarlari turiga kiritiladi.Rangtasvirda narsa va voqealar, real borliq, inson tafakkuri hamda biron-bir g‘oya bo‘yoqlar yordamida odamlarga ko‘rinadigan holatda ifoda etiladi.Rangtasvir asarda narsa va voqeanning barcha elementlari, ularning perspektivasi, o‘rni, rangi, materiali, turish holati, ichki mohiyatini bo‘yoqlar yordamida, badiiy obraz va shakllarda ifodalaydi. Rangtasvir asarlarida kompozitsiya, ya’ni asardagi narsalarning shakli, tuzilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, o‘rni va turish holatiga ko‘ra aniq, to‘g‘ri ifodalanishi; kolorit — ranglarning uyg‘unligi; ritm — asarda kompozitsion elementlarning bezirim, tekis, dinamik holatda takrorlanishi; rang kontrasti — bir xil ranglarning o‘z atrofidagi ranglarga mos idrok qilinishi; rang perspektivasi kabi tasvirlash vositalari asosida yaratiladi.Rangtasvir texnikasi deganda — san'at asarini yaratish uchun zarur vositalarni tayyorlash, undan foydalanish usullari tushuniladi. Ma’lumki, rangtasvir asarlarini yaratishda rassom turli bo‘yoqlardan foydalanadi.[1]

Rassomlik texnikasi uzoq tarixga ega bo‘lib, u rassomlarning ijodiy izlanishlari tufayli rivojlanib, takomillashib keldi. Ibtidoiy jamiyatning paleolit davridayoq qoyalarga ishlangan qizil, jigarrang, sariq va qora rangdagi rasmlar bizning davrimizgacha yetib kelgan. Antik va o‘rta asr davri rangtasviri tabiiy, mineral va organik bo‘yoqlarda yaratilgan san'at asarlarida yaqqol ko‘rinadi.Rangtasvir asarlari moybo‘yoq, akvarel, guash, tempera, pastel, rangli qalamda ishlanadi. XV—XVI asrlarda moybo‘yoq bilan rasm ishlash rivojlandi.Rangtasvirning amaliy va me’morlik, haykaltaroshlik san'ati bilan bog‘liq holda rivojlanishi antik davr san'atining asosiy

belgisi bo‘ldi. O'rta asrda esa Yevropa, Kavkaz, O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Yaponiyada rangtasvirning qator tur va janrlari rivojlandi. Juhon rangtasvir san'atining uyg'onish davri o‘zining ilg'or an'analari, fikr va g'oyalari san'at asarlarida realistik uslubda o‘z ifodasini topishi bilan butun san'at tarixiga alohida muqaddima bo‘lib kirdi.[2] Uyg'onish davri tasviriy san'ati uyg'onish davrining monumental tarixini yaratdi, desak mubolag'a bo‘lmaydi. Bu davrda ijod qilgan Mazachcho, Franchesko, Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Titsion, Behzod kabi rassomlar va XVIII—XIX asrlarda ijod qilgan Rubens, Loren, Velaskes, Rem brandt, Karavadjo, Sharden, Lui David, Delokuri, Konstabel, Kurbe, Mane kabi rassomlar ijodida rangtasvir san'ati muhim o‘rin tutadi.O‘zbekiston hududidan (Teshiktosh g‘ori, Zarautsoy, Chust, Sopollitepa, Qizilqir, Yaraxsha kabi) topilgan buyumlar, sopol idishlar va devoriy rasmlarning bo‘yoqlar bilan ishlanganligini ko‘rish mumkin. Xolchayonda qazib topilgan saroy devorlaridagi, Zarautsoy qoyalaridagi rangtasvirlar orqali miloddan avvalgi va milodning boshlarida shakllangan rangshunoslikka oid ma'lumotlarga ega bo‘lish mumkin.Eramizning boshlarida va Arab istilosigacha o‘zbek rangtasvir san'ati ancha shakllangan bo‘lib, unda hayvonlar, odamlar va tabiat tasviri o‘z ifodasini topgan. Bu Gavr qal’asi, Afrosiyob, Yaraxsha devorlariga ishlangan rangtasvir san'ati namunalarida ham mohirona aks ettirilgan.Islom dinining O‘rta Osiyoga kirib kelishi bilan o‘zbek tasviriy san'atida jonli zotlarni tasvirlash qat’iyan man etiladi. Shu boisdan VII asrdan boshlab, o‘zbek rangtasvir san'atida portret va anamalistik janrlar rivojlanmay qoldi. Rangtasvir amaliy va me’morlik san'ati asosida rivojlandi. Ma'lumki, VII—X asrlarda Samarqand va Buxoro qog‘ozi shuhrat qozondi. Bu rangtasvirning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo mo‘g‘il istilosi (XIII asr), eng avvalo, O'rta Osiyo san'ati, madaniyati va fanining rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. O’sha davrning eng go‘zal, jahonga mashhur Samarqand, Buxoro, Urganch, Xiva, O‘tror kabi shaharlarining kulini ko‘kka sovurdi.XIV—XVII asrlarda, ya’ni temuriylar davrida o‘zbek tasviriy san'ati qayta shakllanib, unda rangtasvir san'ati alohida e’tiborga ega bo‘ldi. Rangtasvir amaliy va me’morlik san'ati hamda kitob grafikasi bilan birgalikda taraqqiy topdi.[3] K.Behzod, M.Muzahhib, A.Buxoriy, M.Samarqandiy kabi taniqli musavvirlar o‘zbek rangtasvir san'atining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. O‘zbek rangtasvir san'ati tarixiga nazar tashlar ekanmiz, undagi portret hamda anamalistik janming man etilishiga qaramay, o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanganligi kitob grafikasida va devoriy rangtasvir asarlarida yaqqol ko‘rinadi.Sho'rolar davrida o‘zbek rangtasvir san'ati yangi yo‘nalishga kirdi va u o‘ziga xos tarzda rivojlandi. Uning barcha janrlari: portret, manzara, naturmort, maishiy, tarixiy janrlar, jumladan, amaliy san'at ham yangi mazmun, mohiyat va xarakterda taraqqiy etdi. O‘zbek rangtasvir san'atining shakllanishi va rivojlanishida L.Bure, A.Nikolayev, P.Benkov, O‘.Tansiqboyev, S.Abdullayev,A.Abdullayev, N.Karaxan, Ch.Ahmarov, M.Nabihev, R.Choriyev, R.Ahmedov, B.Jalolov, J. Umarbekov,

M.Saidov, Z.Inog‘omov kabi rassomlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz.Mustaqillik yillarida o ‘zbek rangtasvir san’atining keksa ijodkorlari R.Choriyev, R.Ahmedov, M.Nabiyev, N .Qo‘ziboyev,B.Boboyev kabilar bilan bir qatorda, B.Jalolov, J.Umarbekov,I.Turg‘unnazarov, Y.Taldikin, V.Burmakin, S.Alibekov, Akmal Nur, L.Ibrohimov, T.Quryozov, A.Ikromjonov, V.Oxunov,O.Qozoqov kabi yuzlab yosh rassomlar ham ijod qilmoqdalar.[4]

### Xulosa:

Rangtasvir asarlari o'zining yaratilish uslubi, maqsadi va vazifasiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi.

1. Monumental rangtasvir — arxitektura, me’morchilik bilan bog‘langan holda, jamiyat hayotidan olingan voqealarni ifodalab, umumtarbiyaviy vazifani bajaradi. Bunday asarlar asosan umumiylar xarakterda bo‘lib, uzoqdan ko‘rinishga moslashtirib ishlanadi. Shu boisdan ular bino devorlariga yoki biron sathga devoriy rasmlar bo‘yoqlar bilan rangli toshlar, sopol, shisha, oyna kabi materiallar vositasida ishlanadi.

2. Dastgohli rangtasvir — maxsus tayyorlangan ramkaga tortilgan mato (xolost) yuzasiga bo‘yoqlar yordamida ifoda etilgan san’at asaridir. Bu asarlar maxsus dastgoh yoki molbert deb atalgan qurilmada ishlanadi, shu boisdan bunday asarlarni dastgohli asarlar, ya’ni dastgohli rangtasvir deyiladi.

3. Dekorativ rangtasvir — asosan, bezatish vositasi sifatida me’morlik va amaliy san’at bilan bog‘liq holda ishlanadi. Bu san’at, asosan, bezak san’ati bo‘lib, undagi tasvirlar ham ko‘proq dekorativlashtirilgan holatda ifodalanadi. Bu san’at naqqoshlik, sahnalarni bezatish, kino san’ati va teleko‘rsatuvlarni bezatishda keng qo‘llaniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.N.Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitish uslubiyoti. Namangan 2001- y. [1]
2. B.N.Oripov, B.B.Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi (dastur). Toshkent 2001- y.[2]
3. M.Nabiyev, B. Azimova. Rasm chizishni o‘rgatish metodikasi. Toshkent 1976-y.[3]
4. B.Oripov. Rasm chizish va uni o‘qitish metodikasi (dastur).Toshkent 1986- y.[4]

УДК: 619:616.981.42

**РЕЗУЛЬТАТЫ ИСПЫТАНИЯ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ НАБОРОВ ИФА ДЛЯ  
ДИАГНОСТИКИ БРУЦЕЛЛЁЗА ЖИВОТНЫХ**

**Сайдов А.А<sup>1</sup>, Рузимуродов М.А.<sup>1</sup>, Абдалимов С.Х.<sup>1</sup>, Каюмов Э.А.<sup>2</sup>**

Научно-исследовательский институт ветеринарии,  
СП ООО «UNIGEN».

**Аннотация**

В статье приведены материалы по испытанию отечественного набора ИФА - «Бруцеллез IgG-ИФА» предназначенного для диагностики бруцеллёза животных. Результаты предварительных исследований указывают на высокую их специфичность и активность по сравнению с традиционным классическим методом РА предназначенного для скрининговой диагностики.

**Ключевые слова:** Бруцеллёт, антиген, антитела, иммуноферментный анализ, коньюгат, стоп-реагент.

**Введение.** Бруцеллез - особо опасное зоонозное заболевание, склонную к переходу в хроническую форму и широко распространенное среди животных и людей. С момента открытия возбудителя прошло уже более 135 лет. Однако, несмотря на то, что это заболевание хорошо изучено многими отечественными и зарубежными исследователями, проблема бруцеллеза остается актуальной и посей день во многих странах мира. В экономически развитых странах, таких как США, Франция, Германия, Дания, Норвегия, Швеция, Финляндия, Швейцария и др. достигнуты определенные успехи в борьбе с бруцеллезом крупного рогатого скота, вызванной видом *Brucella abortus*. Иначе обстоит дело с бруцеллезом мелкого рогатого скота, вызываемого видом *Brucella melitensis*, эпизоотическая и эпидемическая ситуация по которым ухудшается. Так, в южной полосе Европы и примыкающих к бассейну Средиземноморья (Юго-восточная Франция, Португалия, Испания, Греция, Италия, Турция, Сицилия, Мальта, Крит и др.) эпидемический бруцеллёт достаточно широко распространен среди людей и связано это в первую очередь с поражённостью бруцеллёзом коз и овец и широким употреблением молочной продукции в частности сыров и брынзы [1, 2, 3, 4, 5].

В странах СНГ: России, Азербайджане, Казахстане, Киргизии, Таджикистане, Узбекистане, Армении, Грузии, Туркмении и др., заболевание бруцеллёт, также является одной из наиболее актуальных проблем.

В частности, в настоящее время эпизоотическая и эпидемиологическая обстановка по бруцеллезу в Узбекистане остается не совсем благоприятной и

определяется наличием бруцеллеза в основном среди мелкого и крупного рогатого скота.

Сегодня поголовье скота в Узбекистане насчитывает более 12 млн. голов крупного и примерно - 25 млн. голов мелкого рогатого скота. Одной из основных причин наличия бруцеллёза в стране заключается в том, что 94,1% крупного и 83,9% мелкого рогатого скота находится в частных подворьях дехканских хозяйств, где проведение противобруцеллённых мероприятий и контроль за ним становится очень трудоёмким и затратным. Другой немаловажной причиной является то, что не изученными остаются вопросы эпизоотологии бруцеллёза лошадей, свиней, верблюдов и др. видов животных, которые также могут служить источником данной инфекции и их роль в распространении бруцеллёза имеет существенное значение.

Известно, что первостепенными, в борьбе с бруцеллёзом являются контроль и специфическая профилактика. Задачей контроля и специфической профилактики бруцеллёза является искусственное снижение степени заболеваемости животных до относительно низкого уровня при его возникновении или распространении внутри указанного района. А это решение социальных и экономических вопросов, т.е. исключение его влияния на здоровье людей и торговлю животноводческой продукцией.

Для проведения своевременного контроля необходимо наличие компетентных лабораторий, специалистов и достаточного количества в первую очередь диагностических средств.

Поэтому одной из основных задач, стоящих перед ветеринарной наукой и исследователями, является разработка и внедрение новых инновационных биотехнологических приёмов, направленных на производство высокоэффективных диагностикумов. Одним из эффективных и достоверных методов при диагностике инфекционных болезней является иммуноферментный анализ (ELISA).

Целью наших научных исследований являлось испытание впервые разработанных в Узбекистане отечественных наборов, предназначенных для иммуноферментного анализа и используемых для диагностики бруцеллёза животных.

### **Материалы и методы**

Разработка реагентов для иммуноферментного анализа (ИФА) - «Набор реагентов для иммуноферментного выявления IgG антител к возбудителю бруцеллеза в сыворотке (плазме) крови крупного рогатого скота» (далее «Бруцеллез IgG-ИФА») проводилась совместно со специалистами СП ООО «UNIGEN» и Российской компанией «ХЕМА» на базе Научно-исследовательского института ветеринарии.

При изготовлении наборов «Бруцеллез IgG-ИФА» использовали планшеты - 96-луночные полистироловые, стрипированные (или моноплитки), с сорбированным антигеном. В качестве отрицательного контроля, использовали сыворотку крови КРС, не содержащих антител к возбудителю бруцеллеза. Положительными контролями, служили сыворотки крови КРС, с известным содержанием IgG антител к возбудителю бруцеллеза. Также, использовали готовое к применению конъюгаты антител, конъюгированные пероксидазой хрена с красителем и субстратным раствором тетраметилбензидина (ТМБ) (произведенными компанией «ХЕМА»).

Для производственного изготовления раствора Буфера для разведения образцов, в деионизированной воде растворяли следующие реагенты: натрий хлористый ( $\text{NaCl}$ ), натрий фосфорнокислый однозамещенный 2-водный ( $\text{NaH}_2\text{PO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ), натрий фосфорнокислый двузамещенный 2-водный ( $\text{Na}_2\text{HPO}_4 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$ ), Твин-20 ( $\text{C}_{58}\text{H}_{114}\text{O}_{26}$ ), краситель.

26-кратный концентрат отмычочного раствора изготавливали путем растворения в деионизированной воде следующих реагентов: натрия хлористого ( $\text{NaCl}$ ), Твина-20 ( $\text{C}_{58}\text{H}_{114}\text{O}_{26}$ ), кислоты бензойной ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{COOH}$ ).

Для тщательного и быстрого растворения использовали мешалки с подогревом. После приготовления во всех растворах стабилизировали уровень рН и стерилизовали путем мембранный фильтрацией.

Для приготовления стоп-реагента, использовали 5% раствор серной кислоты.

Изготовленные готовые растворы при постоянном тщательном перемешивании расфасовывали во флаконы из полипропилена, плотно закрывали завинчивающимися крышками.

Качество всех изготовленных реагентов контролировали путем изучения физических, химических, серологических и других свойств на основе классических физико-химических и серологических методов.

Для испытания отечественных наборов для ИФА использовали сыворотки крови, полученные из хозяйств с различной эпизоотической ситуацией по бруцеллёзу. При проведении реакции использовали следующие оборудование: фотометр вертикального сканирования, позволяющий измерять оптическую плотность содержимого лунок планшета при длине волны 450 нм; термостат, поддерживающий температуру  $+37 \pm 2^\circ\text{C}$ ; вишер (промыватель) для планшет; дозаторы со сменными наконечниками, позволяющие дозировать объемы в диапазоне 10–250 мкл; шейкер для планшетов; цилиндр мерный вместимостью 1000 мл.

Определение IgG антител к антигенам возбудителя бруцеллёза крупного рогатого скота (КРС) проводили в непрямом варианте иммуноферментного анализа. Набор «Бруцеллез IgG-ИФА» рассчитан на проведение анализа в

монопликатах 92 исследуемых образцов и 2 проб контрольных сывороток в дубликатах (всего 96 определений). Перед проведением анализа компоненты набора и исследуемые образцы сыворотки крови выдержали при комнатной температуре (+18+25°C) не менее 30 мин.

#### **Алгоритм проведение иммуноферментного анализа по набору «Бруцеллез IgG-ИФА»**

**Приготовление рабочего отмывочного раствора.** Концентрат отмывочного раствора набора необходимого количества разводили дистиллированной водой в 26 раз (1 мл концентрата отмывочного раствора + 25 мл дистиллированной воды) и тщательно перемешали.

**Разведение исследуемых образцов.** Расчёт разведения: 400 мкл Буфера для разведения и 10 мкл исследуемой сыворотки. Контрольные сыворотки не разводили.

**Приготовление планшета.** Установка на рамку (планшет) необходимое количество стрипов для исследуемых образцов (сывороток) и 4 лунки для контрольных сывороток (отрицательный контроль - 2 лунки, положительный контроль - 2 лунки). Вносили в лунки по 100 мкл положительного и отрицательного контролей и исследуемых образцов (разведенные образцы сыворотки (плазмы). Аккуратно перемешали содержимое планшета на шейкере, заклеивали планшеты бумагой, предназначеннной для этих целей. Инкубировали 60 минут при температуре +37°C. После окончания инкубации удаляли содержимое лунок аспирацией и отмывали лунки 3 раза в вощере. При каждой отмывке добавляли во все лунки не менее 250 мкл отмывочного раствора. Вносили в лунки по 100 мкл коньюгата. Заклеивали планшет бумагой, предназначеннной для этих целей. Инкубировали 60 минут при температуре +37°C. Отмывали лунки 5 раз отмывочным раствором. Вносили во все лунки по 100 мкл раствора субстрата тетраметилбензидина. Инкубировали планшет в темноте при комнатной температуре (+18+25°C) в течение 10-20 минут в зависимости от степени развития синего окрашивания. Вносили во все лунки по 100 мкл стоп-реагента. Измеряли величину оптической плотности (ОП) содержимого лунок планшета на фотометре вертикального сканирования при длине волны 450 нм. Бланк фотометра выставляли по воздуху.

**Рассчитывали** содержание IgG антител к антигенам возбудителя бруцеллеза КРС в исследуемых образцах. Для этого:

1. Рассчитали среднее значение оптической плотности (ОП) отрицательного контроля:

$$\text{ОП}(\text{CN116BZ})_{\text{ср}} = (\text{ОП}_1(\text{CN116BZ}) + \text{ОП}_2(\text{CN116BZ})) / 2$$

где, ОП – оптическая плотность (OD); CN – отрицательный (control negative) контроль; ср – средний (mean).

Результаты анализа считали достоверными, если:

- ОП Положительного контроля не ниже 0.4 оптических единиц (ОЕ);
  - ОП Отрицательного контроля не выше 0.15 ОЕ во всех лунках.
2. Рассчитывали уровень граничного значения Cut off. Для этого к среднему значению ОП Отрицательного контроля прибавляли коэффициент 0,3. Это значение вносили в Паспорт контроля качества набора.

**Cut off = ОП (CN116BZ)<sub>ср</sub> + 0,3**

3. Рассчитывали Индекс Позитивности (ИП) для каждого исследуемого образца. Для этого ОП образца разделили на значение Cut off.

**ИП% = ОП<sub>образца</sub> / Cut off**

*Интерпретацию результатов проводили по разработанной инструкции набора «Бруцеллез IgG-ИФА», согласно следующих оценок:*

При ИП>1.1 образец положительный;

При ИП<0.9 – отрицательный.

При значении ИП, лежащем в промежутке от 0.91 до 1.09 – результаты считались как находящиеся в граничной зоне (сомнительный). Такие образцы исследовали повторно. Если повторно полученный результат был неопределенным, то проводили тестирование сыворотки (плазмы), полученной через 2–4 недели. В случае получения неопределенных результатов такие образцы считали отрицательными.

### **Результаты и обсуждения**

При выборочном исследовании в РБП и РА 447 проб сывороток крови от КРС и 20 проб сывороток крови собак, полученных из благополучных по бруцеллёзу хозяйств Джизакской области результаты серологических тестов, были отрицательными, т.е. специфические бруцеллёзные антитела обнаружены не были. Данные результаты РБП и РА сравнительно перепроверены методом иммуноферментного анализа (ИФА) с использованием отечественных наборов «Бруцеллез IgG-ИФА». При этом были получены аналогичные отрицательные результаты в ИФА. То есть, при выборочном исследовании набором «Бруцеллез IgG-ИФА» в крови 447 проб сывороток крови КРС и 20 проб сывороток, полученных от собак, были получены отрицательные результаты на IgG антител против бруцеллёза. При этом в лунках с заведомо положительными (контрольными) сыворотками были получены положительные результаты. Полученные результаты свидетельствуют о высокой специфичности отечественных наборов «Бруцеллез IgG-ИФА» при диагностике бруцеллёза.

При проведении испытаний в Самаркандинской области в группе сывороток крови, полученных выборочно от 126 голов МРС и присланных для установления иммунного фона на бруцеллёз (т.е. от вакцинированных штаммом Рев-1 животных) получены удовлетворительные результаты, свидетельствующие о наличии

иммунного фона. При этом результаты исследований, полученные при использовании отечественных наборов «Бруцеллез IgG-ИФА» указывали на наличие специфических IgG антител в сыворотке крови иммунизированных животных в 100% случаев, тогда как по реакции агглютинации (РА) реагировало всего 91% иммунизированных животных.

### **Выводы**

Таким образом, испытание наборов ИФА - «Бруцеллез IgG-ИФА» изготовленных на производственном участке базы НИИВ показали высокую их специфичность и активность по сравнению с традиционным классическим методом РА предназначенного для скрининговой диагностики, что является основанием о возможном применения данных отечественных наборов на практике для диагностики бруцеллёза среди животных и оценки поствакцинального иммунного статуса среди них.

### **Использованная литература**

1. Шумилов К.В. Разработка и усовершенствование средств методов специфической профилактики и диагностики бруцеллеза животных: Дисс. д.в.н.- М.: 87 С.46.
2. Ясеняvская А.Л., Генатулина Г.Н, Арнаудова К.Ш. «Методы иммуноферментного анализа в современной лаборатории» Астрахань.
3. Нестерова И.Г., Бобкова М.Р. Внутрилабораторный контроль качества неколичественных методов ИФА-определения серологических маркёров различных инфекций// Клиническая лабораторная диагностика. - №6.-2011.
4. Глик Б., Пастернак Дж. Молекулярная биотехнология. Принципы и применение. Москва:Мир, 2002.
5. Poulou A, et al. 2006. A rare case of *Brucella melitensis* infection in an obstetrician during the delivery of a transplacentally infected infant. J. Infect. 53:39–41.

УДК:632.4.01/633.

**БУҒДОЙНИНГ ФУЗАРИОЗ КАСАЛЛИГИНИНГ ҲОСИЛДОРЛИККА  
ЗАРАРИ ВА УЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ**

қ/х.ф.ф.д., доцент: **Н.С.Хайтбаева**

**Боратов Сарваржон Бахтиёржон ўғли**

*Тошкент Давлат аграр университети*

*Усимликлар ва кишлоп хўжалиги маҳсулотлари карантини*

*2- боскич талабаси*

**Аннотация**

*Fusarium* туркумига мансуб замбуруғларнинг Қашқадарё вилояти Китоб туманидаги фермер хўжаликларида ғўздан кейин буғдой етиширила ётган далаларда экин пишиб етилиш олдидан тўсатдан сарғайиб қуришига сабаб бўлаётганлиги, касаллик белгилари ва хосил миқдорининг камайиши даги роли кўрсатилган. Касалланган ўсимликтаги донлар миқдори соғлам ўсимликтаги донларга нисбатан 57,9 % га, оғирлиги эса 31,1% га камайиб кетади.

Республика қишлоқ хўжалиги ўсимликларнинг касалликларига қарши курашда чидамли навларни яратиш, уларни қишлоқ хўжалигига жорий қилиш асосида хосилни нобуд бўлишига йўл қўймаслик масаласи энг долзарб масала ҳисобланади.

Ғалла экинларининг фузариоз касаллиги Ер юзининг турли мамлакатларида кенг тарқалган ғалла хосилдорлигига ва дон сифаига салбий таъсир кўрсатадиган касалликлардан хисобланади.

Россиянинг жанубий регионларида 1980 йилда тарқала бошлаган бу касаллик туфайли 20-50% хосил нобуд бўлмоқда (Гагкаева ва бош.,2011). Ғалла экинларининг фузариози муоммаси халқаро миқиёсдаги масала ҳисобланади. Уларнинг Ер юзида кенг тарқалганлиги, уларнинг ўзгарувчанлиги ,кўплаб ўсимликларни касаллантириш муоммаси, инсон ва хайвонлар соғлигини сақлаб қолиш учун қўплаб мутахасисларни бу маслага мурожаат қилишга мажбур қиласди.

Ғалла экинларидан мўл хосил олишнинг самарали йўлларидан бири ўсимликларни касаллик, хашарот въя бегона ўтлардан ҳимоя қилишdir. Барча қишлоқ хўжалик экинлари ўз онтогенезида тупроқдаги,сувдаги,хаводаги микроорганизмлар билан турлича муносабатда бўладилар.Бу жараён экологик шароитга боғлиқ равишда агрофитоценоздаги барча организмлар нинг фаоллигига ва пассивлигига хам таъсир кўрсатмоқда.

Ғұза ва буғдой алмашлаб әкиш йўлга қўйилган далаларда тупроқдаги микроорганизмлар фаолиятига глобал чўлланиш ва шўрланиш жараёни хам салбий таъсир кўрсатмоқда. Натижада тупроқда микроорганизмлар фаоллиги ўзгариб, озиқа занжиридаги ўрни алмашишига олиб келмоқда. Бу жараён айниқса замбуруғлар оламида яққол кўзга ташланланлигидан айрим патоген турлар фаллиги пасайиб, айрим факультатив паразит замбуруғлар фаоллиги кучайиб бормоқда.

Масалан, 1970-1990 йилларда кенг тарқалган ғўзанинг вертициллөз вилти ўрнига 2000 йилдан бошлаб фузариоз вилтининг кенг тарқалганлиги улар паразитлик қилаётган хўжайнин ўсимликлар турлар таркибининг кенгайишига имкон яратилганлигидир. Бунга асосий сабаб, тупроқдаги замбуруғларнинг популяцияларининг ўзаро чатишиши натижасида янги физиологик ва биохимик хусусиятга эга бўлган агресив ирқларнинг пайдо бўлиши уларнинг янги ареалини хосил бўлишига, тарқалишига имконият яратмоқда.

Фузариоз вилтини келтириб чиқарувчи *Fusarium* туркумига мансуб забуруғларнинг бундай ирқлари Бухоро ва Сурхандарё вилоятларида ғўзани касаллантирадиган, Қашқадарё вилоятида буғдойни касаллантирадиган агресив формалари бу туркум вакиллари орасида янги рассалар вужудга келаётганлигини исботлайди. Натижада, янги рассалар популяцияси кенг тарқалган тупроқларда кичик кичик ареалда ғўзани ёки буғдойни касаллантириш холати кузатилмоқда.

Бу популяцияларга этиштирилаётган ғўза ва буғдой навларининг чидамлилик даражаси илмий жихатдан ўрганилмаганлигидан касаллик белгиларининг намаён бўлиши, зарари тўлиқ аниқланмаган. Касалликнинг тарқалишини чегаралашда ва унга қарши илмий асосланган кураш чораларини ишлаб чиқиша тупроқдаги замбуруғлар жамоасининг турлар таркибини ўрганиш, даланинг фитосанитар холатини тўғри аниқлаш қишлоқ хўжалик экинларининг иммунитет хусусиятини сақланиб қолишини илмий жихатдан асослаш имконини беради.

*Fusarium* туркумига мансуб замбуруғларнинг янги агресив ирқларининг популяциялари ареалини чекланган худудларда тарқалишини ва бу ирқларнинг буғдойни касаллантиришини Қашқадарё вилояти Китоб туманидаги “Хошимжон Исомиддинович”, “Набсул эктал”, “Отакул бобо Тошов” номли фермер хўжаликлирида ғўзадан кейин буғдой этиштирилаётган далаларда экин пишиб этилиш олдидан умумий сатхи  $5-10 \text{ m}^2$  хажмни эгаллаган майдонларда буғдойнинг тўсатдан сарғайиб қуриш холатлари кузатилди(1- расм).



1- расм. Фузариоз билан касалланган бүгдойзор.

Бундай белгиларга эга бўлган ўсимликлардан гербарий тайёрлаб, ТошДАУ фитопатология кафедрасида микологик тадқиқ қилинганда қуидаги белгилари мавжудлиги аниқланди.

Касалланган ўсимликлар тўлиқ пишиб этилмасдан кичик майдонларда саргайиб қурий бошлайди. Касалланган ўсимликнинг илдиз тизими қорамтири жигар рангга киради (2-расм), пояси ингичкалашиб, бўғин атрофи қорамтири жигар рангта кирганини кўриш мумкин (3-расм). Бундай пояларда хосил бўлган бошоқлар соғлам ўсимликка нисбатан кичика бўлиб,(4-расм), донлари пишмасдан қурий бошлаган, шакли майда, дон юзаси ғадир-будурлашиб кетади (5,6,7-расм). Касалланган донлар оғирлиги кескин камайиб, пуч бўлиб қолади (2-жадвал). Касаллик туфайли уруғларнинг унувчанлиги пасаяди, ўсимлик илдизи чирийди, сўлийди ва бошоқдаги донлар касалланади.



2- расм. Фузариоз билан касалланган ( чапда) ва соғлам буғдой илдизлари.

Касалланган буғдой илдизини микологик анализ қилинганда *F.oxysporum* замбуруғи, буғдой поясидан *F.moniliforme* замбуруғи буғдой донидан *F.oxysporum* замбуруғи ажралиб чиқди (8-расм).



3- расм. Фузариоз билан касалланган (чапда) ва соғлам (ўнгда) буғдой пояси.



4- расм. Фузариоз билан касалланган (ўнгда) ва соғлам буғдой бошоқлари.



5- расм. Фузариоз билан касалланган (пасда) ва соғлам буғдой донлари.



6- расм. Анализ вақтида соғлам ва касалланган уруғларнинг қўриниши.



8-расм. Микологик анализ вақтида касалланган буғдой дондан *F.oxysporum* турининг ажralиб чиқиши.



9-расм. Касалланган буғдой ўсимлиги (чапдан ўнга) уруғидан баргидан, илдизидан *Fusarium*, *Trichoderma*, *Penicillium*, *Alternaria* туркумига мансуб замбуруғларнинг ажралиб чиқиши.

Микологик анализ вақтида касалланган ўсимлик уруғидан, поясидан ва илдизидан *Trichoderma*, *Penicillium*, *Alternaria* туркумига мансуб замбуруғлар хам ажратиб олинди. Бу туркумга мансуб замбуруғларнинг касалланган ўсимлик ва *Fusarium* туркумига мансуб турлар билан муносабатини келажакда ўрганиш, касалликка қарши биологик қураш стратегиясини ишлаб чиқишида мухим назарий ва амалий ахамиятга эга (9-расм).

Буғдойнинг фузариоз касллиги ғалла хосилдорлигини пасайтириб қолмасдан, доннинг сифатига хам салбий таъсир кўрсатади (1-жадвал).

#### 1-жадвал

Соғlam ва касалланган буғдой тупида донлар сони ва оғирлигининг камайиши

Ўсимлик холати	Бир тупдаги		Дон миқдорининг камайиши %	
	донлар сони,та	Донлар оғирлиги,г	сони	оғирлиги
Соғlam	333	93	0	0
Касалланган	193	29	57,9	31,1

Жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, бир тупдаги соғlam буғдой тупидан 333 дона буғдой донининг оғирлиги анализ вақтида 93 грамни ташкил қиласди. Касалланган ўсимлиқда донлар сони 193 тани, оғирлиги 29 грамни ташкил қиласди. Натижада, касалланган ўсимликдаги донлар миқдори соғlam ўсимликдаги донларга нисбатан 57,9 % га, оғирлиги эса 31,1% га камайиб кетади.

Навбатдаги жадвалда хар бир бошоқдаги донлар сони ва уларнинг оғирлиги берилган. Касаллик туфайли доннинг шакли ва ривожланиши орқада қолганлигидан уларнинг шакли майдалашиб, оғирлиги кескин камайиб кетади (2-жадвал).

Соғлам ва каслланган буғдой тупидаги бошоқларда хосил бўлган донлар  
оғирлиги

Ўсим- ликнин г холати	1-бошоқ		2-бошоқ		3-бошоқ		4-бошоқ		5-бошоқ		6-бошоқ		7-бошоқ	
	Донлар сони	Оғирлиги гр												
Соғлам	47	1 3	50	14	46	12	47	14	47	13	48	14	48	13
Касал лан ган	28	3	41	7	41	6	13	2	39	7	4	1	27	3
Кама йиш	19	1 0	9	7	5	6	34	12	8	6	44	13	21	10

Шундай қилиб, буғдойзорладаги ўсимликларнинг донлар пишиб этилмасдан қуриб қолишига тупроқдаги факултатив паразит замбуруғ *Fusarium* туркуми вакиллари сабабли вужудга келади.

Жаҳон олимлари бу замбуруғларнинг морфологик, биологик, биохимик, физиологик, генетик хусусиятларини ўрганиш асосида уларнинг агробиоцероз даги сонини чегаралашга, зарарини камайтиришга қаратилган.

Бу муомма Халқаро ташкилотлардан ФАО,ВОЗ,ЮНЕП ларнинг диққат марказида бўлишига сабаб,замбуруғнинг ўсимликда хосил қилган захар моддалари инсон ва хайвонлар саломатлигига хам таъсир кўрсатади.

Шунинг учун, буғдойнинг фузариоз касаллиги билан курашни ташкил қилишдаги тадбирлар қуйидаги учта йўналишда олиб борилиши керак:

Биринчи йўналиш *Fusarium* замбуруғининг морфологик, биологик, биохимик, физиологик, генетик хусусиятларини Республикализнинг экстремал шароитида намаён бўлишини ўрганиш учун фундаментал тадқиқотларни олиб бориш;

Иккинчидан касалликка қарши курашни илмий ташкиллаштириш учун ғўзагалла алмашлаб экиш шароитида замбуруғнинг тупроқда хусусиятлари ни намаён қилишини эътиборга олиш;

Уруғларни экишга тайёрлашда фузариоз касаллигига қарши фунгицидлар билан ишлов бериш;

Учинчидан ғалладан бўшаган далаларни чукур шудгор қилиб экинларни экиш, экин даласидаги бегона ўтлар ва ўсимлик қолдиқларини йўқ қилиб ташлаш, уруғликни намлигини мейёрида саклаш, уруғликни сара уруғлардан тайёрлаш,

ғаллазорларга минерал ва органик ўғитларни мейёрида қўллаш, каби агротехник тадбирларни амалга ошириш керак.

### Фойдаланган адабиётлар

1. Берестецкий О.А. Изучение фитотоксических свойств грибов// Методы экспериментальной микологии. Киев: Наукова думка. 1973. С. 165-175.
2. Билай В.И. Фузарии. Киев: Наукова думка. 1977. 439 с.
3. Билай В.Й., и др, Морфология микроконидий видов секции Elegans. –В кн.: Метаболиты почвенных грибов. К., “Наукова думка”, 1971а, с.184
4. Горленко М.В. Семена как источник распространения болезней сельскохозяйственных растений // Влияние микроорганизмов и проправителей на семена. –М.: Наука. 1972. С. 11-15.
Yana bir shunday obraz borki xarakter jihatidan mukammal tarzda tasvirlanuvchi millat otasi bo‘lmish Yusufbek hojidir. Uning tashqi ko‘rinishi deyarli tasvirga olinmaydi. Xarakter jihatidan esa uning bir qiziq odati haqida gapiriladi: “Yusufbek hoji xotini bilangina, emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa bo‘lsin uzoq so‘zlashib o‘lturmaydur. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so‘zлari va yo kengashlari bo‘lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so‘zlay beradilar; maqsad aytib bitkandan so‘ng sekingina ko‘tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uchini o‘z og‘ziga tikiltirib o‘lturg‘andan so‘ng, agar ma’qul tushsa “xo‘b” deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa “xo‘sh” deydir, noma’qul bo‘lsa “durust emas” deydir va juda ham o‘ziga noma’qul gap bo‘lsa bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe’liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko‘pincha bir og‘iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to‘g‘rida so‘zlashmakchi bo‘lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir”.<sup>1</sup> Yusufbek hojining bu odati uning oila a’zolariga nisbatan bir xil pozitsiyada ekanligidan dalolat beradi. Yusufbek hoji davlat ishlarida ham adolaatli bo‘lganidek, oila a’zolariga nisbatan ham o‘sha adolat tarozisi ishlaydi. Chunki Kumushbibi kelishi arafasida O‘zbek oyimning kundashi kelishini Zaynab bilishi shart emas qaroriga qarshi tushib uni ham bundan xabardor etishga, shuning bilan bir qatorda kundoshi bilan ahil yashashga so‘z oladi. Yusufbek hojiningadolatining yana bir ko‘rinishi kundoshlar o‘rtasida chiqib turgan tortishuvlardan xabar topsa, ikkala kelinni ham yoniga chaqirtirib, ikkalasini ham qator o‘tqizib qo‘yar, avval Kumushdan o‘pkalanib uning yoshi kattaligini, kattadan kichikka shafqat lozimligi haqida gapirar, Zaynabga esa hali yoshlik g‘ururi ketmaganligini, shunday bo‘lsa ham Yusufbek hojining farzandi ekanligini unutmaslikni tayinlar, so‘ngra bir-birisiga salom berdirar edi. O‘zbek oyimning nabira ko‘rish masalasida ortiqcha dabdalarga ishtiyoyqini Zaynabning ko‘ngli sinib qolishi ehtimoli yuzasidan qaytarar, ba’zida esa Zaynabning ko‘ngliga qarashni, unga ozor bermaslikni tayinlar edi. Yusufbek hoji shaxsiyati u mutolaa qiladigan “Daloyil” va “Qur’on” kitoblaridan ham bilib olishimiz mumkin. Yusufbek hojining xalqparvarligini Azizbek oldidagi qilgan xizmatlari hamda Muhammad Rajab qo‘rboshining uyida bo‘lgalar rejalashtirayotgan qipchoq urug‘i vakillariga nisbatn qo‘llanilayotgan qirg‘inga qarshi chiqishi haqidagi to‘lqinlanib so‘zlaganlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Yusufbek hoji uzoqni ko‘ra

---

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy.Tanlangan asarlar. T.:“Sharq” nashriyoti. Toshkent-2018. B102.

oluvchilik qobiliyati bilan rus askarlari eshik ostonasida yurtda nifoq chiqishini poylab turgani, yurtni kofirlar bossa kelajak avlodning bo‘yniga sitam arqonlarini bog‘lab uning uchini ruslar qo‘liga topshirishning natijasida kelib chiqadigan vaziyat haqida yozg‘irganligi guvohi bo‘lamiz. Yusufbek hojihar bir ishga aql doirasida o‘ylab harakat qiladi. Yusufbek hoji obrazi yozuvchining Turkiston ijtimoi, iqtisodiy, siyosiy hayotiga tegishli qarashlarini xalq ommasiga yetkazuvchi vazifasini o‘taydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdulla Qodiriy.O‘tkan kunlar.-T.: Yangi asr avlodi, 2011
2. Jabborov N. O‘tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini.-T.: Sharq, 2019
3. Jo‘raqulooov U. Qodiriy va roman tafakkuri.- T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. Qodiriy germinevtikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017
5. Mirzayev T. Va boshqalar. O‘zbek xalq maqollar.- T.: Sharq, 2005
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Qo‘sjonov M. O‘zbekning o‘zligi/Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
8. Suyunova Z. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasi. – T.: Toshkent. 2022.

**XX ASR TURKISTON YIGITLARI TASVIRINING POETIK  
SUVRATLANISHI**

*Suyunova Zarina Muzaffar qizi*

+998938909197

[www.zarina97suyunova@gmail.com](mailto:www.zarina97suyunova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada birinchi o‘zbek romanida tasvirlangan er-yigitlar obrazi tahlil qilingan. Yozuvchi niyati asar yigitlarining vazifasiga yuklatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Otabek, Usta Olim, Usta Parfi, Homid, Sodiq, Mutal polvon, va’daga vafo, do’stlik, sadoqat, jasorat, qiziqqonlik

Abdulla Qodiriyning yurt kelajagi, uning istiqboli yo‘lida harakat qiladigan, ma’naviyat va ma’rifat bir tanda mujassam etgan, komillik darajasiga erishgan obrazi – Otabekdir. Otabek asraning bosh qahramoni bo‘lib, asar Otabek umrining ma’lum bir qismidan boshlanishi ham beziz emas. Roman voqealari uning hayot chizig‘i bilan davom etib uning taqdiri bilan tugaydi. Asardagi butun voqealar uning hayoti, kurashi bilan ancha-muncha bog‘langan. U tug‘iluvchi burjuaziya munosabatlarini tajassumlantiruvchi shaxs. Otabek chet bozor bilan savdo ishlariga kirishgan, zamonasining tushungan yosh savdogari. Abdulla Qodiry Otabekni mavjud ijtimoiy tuzilishga oppozitsiyada bo‘lgan, atrofini o‘ragan muhitdan yuqori, xalq sevuvchi, xalq uchun qayg‘uruvchi va “ideallar” ila yashovchi nir yosh yigit kabi tasvirlaydi.<sup>1</sup> “O‘tkan kunlar” romani chin ma’noda qayg‘ular va tuyg‘ular romanidir. Romanda tuyg‘ular jonli til bilan shunchalar go‘zal ifoda etilganki, asarni o‘qigan kitobxon qayta-qayta mutolaa qilishdan zerikmaydi. Har safar o‘qiganda “O‘tkan kunlar” romani yaqin o‘tmishdan hikoya qilaveradi, o‘quvchiga yangidan yangi lazzat baxsh etaveradi. “O‘tkan kunlar” romani bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Otabek chin ma’noda otasining bolasi. U uzoqni ko‘ra bilish hislatini otameros qilib olgan, sertafakkur, mard yurt o‘g‘lonidir. Hojining o‘g‘li odob-axloq qoidalari asosida tarbiya ko‘rgan, ta’limni ham madrasalarda ko‘rgan dono yigit yurt ozodligi yo‘lida harakat qiladi va jon beradi. Otabek asarda ramziy ma’no tashiydi, yurtning kuchga to‘lgan, ilm-ma’rifatli yoshlar ramzini bildiradi. Beklarbegi madrasasida olgan tahsili va Shamayga qilgan tijoriy safari uning dunyoqarashiga ijobiy ta’sir qiladi. Davlat boshqaruv ishlariga o‘z nuqtai nazaridan turib fikr bildiradi. Hattoki, bek-u hokimlar ko‘magi ostida ruslarning idora usullarini tatbiq etmoqchi bo‘ladi. Abdulla Qodiriyning 1924-yilda Moskvaga boradi. Ba’zi manbalarda Abdulla Qodiriyning Moskva adabiyot kursida tahsil oldi deya ma’lumot bersa-da, “Mushtum” jurnalida “Maskov xatlari” turkumidan Julqunboyning

<sup>1</sup> Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to’plami//o’n to‘rtinchi tom.T.:“Fan” nashriyoti. Toshkent - 1979. B131.

Moskvadan turib yozgan xatlarini nashr etiladi. Nashrlarga qaraganda bu safar 1924-yildan boshlanadi. Qodiriy Moskvada yurganida u yerning iqtisodiyoti, san'ati, siyosati bilan ham tanishadi. Moskvada o'ylab yurgan fikrlarini "O'tkan kunlar" romanida Otabek tilidan aytiradi. Rus diyorining davlat idora tuzumini mahalliylashtirib o'zlashtirish kerakligini, ammo ma'naviyat va madaniyatini o'zlashtirishga hojat yo'qligini o'z publitsistik maqolalarida bayon etadi. Adib Otabekning so'zlari misolida millatning o'sha davrdagi ahvolini qay darajada tahqiq va tadqiq etadi. Davlatning idora usulini mutlaq o'zgartirish zamon talabi ekanligiga oid bunday fikrlar zamirida qanchalik keng dunyoqarash, nechog'lik teran siyosiy ong turishi isbot talab etmaydi. O'sha davrdagidek murakkab va ziddiyatli zamonda ushbu haqiqatni bosh qahramonlar tilidan shu tarzda dadil va ishonch bilan ayta olish uchun katta yurak, ulkan jasorat kerak edi.

Shunday jasorat egasi bo'lgan Otabekning umri ham yurti ozodligi, millatini kofirlar bosqinida himoya qilish yo'lida yakun topadi. 1277-hijriy yilning kuz faslida Yusufbek hoji Qo'qon xonligi amiri lashkari Qanoatshodan maktub olishi va maktubda Olmotada rus qo'shnlari bilan bo'lgan jangda Otabek va uning do'sti mardlarcha jang qilgani va shaid ketgani yozilgan edi. Shuningdek, xatda Qanoatsho ularni o'zi dafn etgani yoziladi. "Yusufbek hoji xatmi qur'on qilib yurtka osh berdi, O'zbek oyim qor kiyib ta'ziya ochdi" so'zlari bilan yakunlanuvchi "O'tkan kunlar romani Vatanning asl o'g'lonlari yurtni yovdan himoya qilish chog'ida mardlarcha jon berganlari, yurtning otalari farzand dog'ida farzand ruhi shod bo'lishi chun xatmi qur'on qilib, yurtka osh bergani yoritiladi. Millatimiz onalari ertangi kun avlodlari shahid bo'lganidan qora kiyib a'za ochadi. O'zbek oyim aynan Otabek uchun emas, balki o'zbek xalqining orzu-umidlari, ertangi baxtli kelajagi barbod bo'lgani uchun ham qora kiydi, ta'ziya ochdi. Yusufbek hojidek inson umrining so'ngida farzand dog'ida qoldi. Hayoti davomida xalq faravonligi uchun harakat qilgan, kerak bo'lsa jonini ham ayamagan yurt otasi siymosi ertangi umidi, dilbandidan judo bo'ldi. O'zbek oyim kiygan qora libos – yurtni keyingi taqdiri, ya'ni ruslar istibdodida xalqining boshiga tushajak qora kunlar ramzini ham ifodalanadi.

Asar xotima bilangina yakunlanmay, roman oxirida "Yozg'uchidan" nomli bo'lim bor. Bu bo'limda yurt uchun jonini ham ayamagan Otabekdek kishilarning avlodlari qismati haqida qisqacha axborot berib o'tiladi. Otabek va Kumushning sof muhabbatи mevasi bo'lmish Yodgorbek o'sha davrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillarida vafot qilgani yoziladi. Yusufbek hoji va Mirzakarim qutidordek xalqning o'ziga to'q vakillarining yakka-yu yagona nabirasi ochlik yillarida vafot etishi taajjublanarli holdir. O'ziga to'q xonodon vakili ochlik yillari vafot etgan bo'lsa, xalqning oddiy vakillari qanday hayot kechirdi ekan?! Yo'g'on cho'zilib, ingichka uzilar zamonda yashagan Yodgorbekning nahot yashab qolishiga imkon bo'lmasan. Yurt otasi Yusufbek hoji, millat onasi O'zbek oyim hamda yurtning asl farzandi Otabek

avlodi Yodgorbek nom-nishonsiz ochlik yillari vafot etishi ramziy ma'noda qo'llanga bo'lib, yurti, millati hurligi yo'lida kurashgan, ushbu yo'lda jonini-da ayamagan jasur kishilarning farzandlarini mustabid tuzum tomonidan ochlikka, xorlikka mahkum etganlar. Asarda yana bir shunday voqeа borki, millatning abgor holga kelganini shundan ham anglab olsak bo'ladi. Bu holat: Yodgorbekdan qolgan ikki o'g'il qolgani hamda ulardan biri Marg'ilonning mas'uliyatli ishchilaridan biri bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekanligini, uning bu kunda o'lik yoki tirikligini noma'lumligi aytishidir. Bir insonning ikki farzandi ikki siyosiy tarafda bo'lishi, albatta tasodifiy holat emas. Otabekdek yurt o'g'lonining avlodlaridan biri bosqinchilar siyosatiga, oqimiga xos tarzda harakat qilsin, ikkinchisi yurtni ozod ko'rish istagida kichik-kichik guruhlar tuzib harakatlansin. Otabek chor Rossiyasi mustamlakasiga, keyingi ikki avlodi bo'lmish o'g'li va nevarasining sho'rolarning mash'um istibdodiga qarshi kurashda halok bo'lgani ham muallifning asl maqsadi milliy ozodlik orzusini tasvirlash bo'lganini anglatadi. Asar oxirida Qodiriy yurti taqdiriga bo'lgan muhabbat, uni qanday kelajak kutib turgani haqida bashorat qilgandek bo'ladi. Yusufbek hoji o'z davradoshlariga qarata ruslar yurtni abgor qilishini, avlodlari bo'yniga qullik tamg'asini urishlarini yonib aytmaganmi edi?! Ayrim shuhratparast, mansabparast va nafsi chakalak otgan yurtning boshida turgan kimsalarning xatosi tufayli olim-u-fuzalolar, mard va jasur, diyonat va insof hislatlarini o'ziga asos qilib olgan xalq mustamlakachilar qo'lida ezildi.

Ikkinchi darajali obrazlar silsilasiga kiruvchi usta Olim asarga hunarmandlar turmush tarzini ifodalash hamda Otabek va Kumushbibining dushmanini tanib olish vositasini bajaradi. Usat Olimning tashqi ko'rinishi taxminan qirq yoshlar, yuzi qonsiz, soqollari siyrakkina, qo'y ko'z, ko'p vaqt madrasa riyozatini chekkannamo, qotma, uzun bo'yli deya tasvirlanib, asli Qo'qonda tug'ilgan, ota-onasi yoshlikda vafot etgani uchun tog'asi qo'lida tarbiya topgan bir yigit. O'n yetti-o'm sakkiz yoshlarda Marg'ilonga bir do'sti bilan kelib to'quvchiga shogird tushadi. Mehnatsevarligi, yaratuvchiligi bilan u to'qigan nusxalar mashhur bo'lib usta Olim nomiga ega bo'ladi. Uning ilk syujetdag kabi muhabbatga ega bo'ladi. Rafiqasi Saodat bilan uch yil baxtli-saodatli hayot kechirib, Saodat xonadoniga ham boshliq vaifasini bajaradi. Saodat farzand ko'rish jarayoniga vafot etgach, qaynonasi tomonidan akasi qimorboz bo'lgan bir qizga uylantiriladi. Ikkinchi xotini usta Olimning barakasini uchirib barcha narsani akasiga tashib, ajralishlariga sababchi bo'ladi. Otabek soxta taloq xati tufayli Mirzakarim qutidor xonadonidan quvilgan kuni Otabekni bir adashgan musofir sanab uni uyiga taklif etadi. O'zini Shokirbek deya tanitgan Otabek usta Olim Jannat xolaning qo'shnisi bo'lganidan, shuningdek, usta Farfi, ya'ni usta Olimning do'sti tomonidan o'zining asl dushmani Homidboy ekanligini ularning gurunglari orasida bilib oladi. Usta Olim obrazi Julqunboy tomonidan Otabekni haqiqatga olib boruvchi bir yo'l vazifasini o'tashi bilan birga, uniga yaqin do'st hamdir. Asar yakunida Yusufbek hoji Qanoatshodan olgan

xatida Avliyo otada bo‘lgan jangda Otabek va uning bir do‘sti – katta ehtimol bilan usta Olim mardlarcha ruslar bilan kurashib shahid ketgani yozilgan edi. Usa Olim sevib uylanishni qadrlaydigan, bиринчи muhabbatи bo‘lgan Saodatga bo‘lgan sevgisi tufayli yashayotgan obrazdir.

Asarda Otabekning maslakdoshi sifatida qaraluvchi yana bir ikkinchi darajali obraz borki, bu obraz Hasanali dir. Otabekning “ma’naviy otasi” bo‘lgan Hasanali bolalik vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman savdogaridan Otabekning bobosi o‘n besh tillaga sotib olgan, Otabeklar xonadoniga qariyb ellik yillardan beri xizmat qilib kelayotgan, o‘ttiz yoshlarida bir sotib olingan cho‘riga uylangan bo‘lsa-da befarzand bo‘lgan qul edi. Yusufbek hoji va Otabekka ixlos bilan qilgan xizmatlari evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko‘rar edi. Muallif Hasanalinining tashqi ko‘rinishini oltmis yoshli, cho‘ziq yuzli, do‘ng peshonali, sariqqa moyil yuzli, to‘garak qora ko‘zli, oppoq uzun soqolli, oyoq qo‘li chaqqon g‘ayratli sifatlari bilan ta’riflaydi. Otabekning Marg‘ilonda uylanishiga boshqosh bo‘lgan, dor tagidan qutqaradigan maktub yozdirib kelgan, uni qiyin vaziyatlardan qutqaruvchi ikkinchi darajali qahramonlardan biridir. Befarzandligi tufayli Otabekka ixlosi boshqacha ekanligi yozuvchi tomionidan ta‘kidlab o‘tilgan Hasanali Otabekdan uni vafotidan so‘ng ko‘mishi to‘g‘risida va’dalar ham olib yuradi.

Akram hoji, Ziyo shohichi kabi obrazlar asar boshida o‘zlarini namoyon qilib, Ziyo shohichi Otabek nomidan Mirzakarim Qutidor uyiga borgach boshqa asarda ko‘rinmaydi.

Davlat idorasida qatnashgan Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek, O‘tabboy qushbegi, Normuhammad qushbegi, Muhammad Rajab qo‘rboshi kabi qahramonlar asarda faqat davlat idorasiga doir ishlardagina o‘zini ko‘rsatadi.

Mirzakarim qutidor obrazi Kumushning otasi bo‘lib, Marg‘ilonda savdogarlik bilan shug‘ullanuvchi, qizining baxti uchun Otabekni har xil vaziyatlarga tushishiga sababchi bo‘lgan, ammo muallif tomonidan unchalik ham yaxshi yoritib berilmagan obrazdir. Olim ponsod haqida uch o‘rindagina ma’lumot keltiriladi: 1) O‘zbek oyim Zaynabbibigasovchilikka borganda; 2) to‘ydan so‘ng charlai bo‘lish arafasida betob bo‘lib yotganida; 3) Xushro‘ybibini uzatish voqeasida.

“O‘tkan kunlar” romanida ijobjiy obrazlar bilan bir qatorda salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan obrazlar ham borki, ular muallif tomonidan noijobjiy sifatlar bilan tashqi ko‘rinishiga ta‘rif beriladi. Ulardan bittasi Homid bo‘lib, uzun bo‘yli, qora cho‘tir yuzli, chag‘ir ko‘zli, chuvoq soqolli, o‘ttiz besh yoshlardagi ko‘rimsizgina bir kishidir. Ikki xotinli bo‘lgan Homid Mirzakarim qutidorning qizini uchinchi xotin qilib olish niyatida Otabek va Kumush o‘rtasiga tushib, ularning ko‘plab qiyinchiliklarga duchor bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Unda ko‘riladigan ichi qoralik, kalta fikrlik, nodonlik kabi hislatlar majlislarda uning qanaqa shaxs ekanligini oydinlashtiradi. Soxta chaqimchiligi tufayli Otabek va uning qaynotasi Mirzakarim qutidorni dor tagiga eltadi. Homid qilmishlariga

munosib jazo oladi, o‘ziga dushman sanovchi Otabek tomonidan jarohatlanadi. Olgan jaohati tufayli halok bo‘ladi. Homidning ayollar, to‘g‘rirog‘i xotinlar to‘g‘risida “Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa, uchinchisini ol. Ko‘b xotin orasia azoblanish nima degan so‘z? Qamchiningdan qon tomib tursa, yuzra xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qila olasan. Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalg‘a to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishg‘a ham o‘yim yo‘q emas.”<sup>2</sup> fikri bilan xotin erkak kishiga muvofiq bo‘lganidek, erkak kishi ham xotiniga muvofiq bo‘lishi darkor fikrida bo‘lgan Otabek va Rahimbeklarga qarshi bo‘lishi ham uning shaxsiyatida faqat o‘zini o‘ylash kabi yomon xislatlar egasi ekanligidan dalolat beradi.

Muta, Sodiq kabi yana bir salbiy obrazlar borki, ularning qilgan ishlari zo‘rlik-u birovning yostig‘ini quritishdan iborat. Julqunboy Sodiqni tasvirlar ekan, uning yigirm ikki yoshdaligi, sariq tanli, ukkining ko‘zidek o‘ynab, chaqchayib, yonib turgan qizil ko‘zları bilan, yuziga parchinlab tashlagan puchuq burni bilan, peshonasi tashqariga turtib chiqqanidek, yuzi ichkariga shunchalar botib ketgani bilan tasvirlaydi. Hayotida dini islomni mahkam tutmagan, birov larga yomonlikdan boshqasini sog‘inmagan Sodiq hayoti ham fojeali tugaydi. Yakka-yu yagona o‘g‘lidan ayrılgan Jannat opa esa bergen noto‘g‘ri tarbiyasi natijasida umrining oxirida yolg‘iz qolishga majbur bo‘ladi. Mutual polvon kuchli, baquvvat bo‘lishiga qaramay, hayotining asosiy qismini mushtumzo‘rlik, tomtesharlik, o‘g‘rilik bilan o‘tkazgan obraz bo‘lib, qilmishiga yarasha jazolanadi, Otabek tomonidan o‘ldiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy.O‘tkan kunlar.-T.: Yangi asr avlod, 2011
2. Jabborov N. O‘tkan kunnarda milliy ruhiyat talqini.-T.: Sharq, 2019
3. Jo‘raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri.- T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. Qodiriy germinevtikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017
5. Mirzayev T. Va boshqalar. O‘zbek xalq maqollar.- T.: Sharq, 2005
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi/Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
8. Suyanova Z. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasi. – T.: Toshkent-2022.

<sup>2</sup> Abdulla Qodiriy.Tanlangan asarlar. T.:“Sharq” nashriyoti. Toshkent-2018. B18.

**ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ROMANIDA MILLAT  
QIZLARI TASVIRI**

*Suyunova Zarina Muzaffar qizi*  
+998938909197  
[www.zarina97suyunova@gmail.com](mailto:www.zarina97suyunova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada birinchi o‘zbek romanida tasvirlangan qizjuvonlar obrazi tahlil qilingan. Xushro‘ybibi, zaynabbibi hamda Kumushbibilar turmush tarzi, xarakter-xususiyatlari konflikt tarzda tahlillga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** Kumushbibi, Xushro‘ybibi, Zaynabbibi, mehr, vafo, go‘zallik, serfikrlilik, muhabbat.

O‘zbek adabiyoti tarixida roman janri qonun-qoidalariga javob bera oladigan dastlabki roman “O’tkan kunlar” bo‘lib, bu asar o‘z vaqtida son-sanoqsiz o‘quvchilariga ega bo‘lgan, hattoki, matnini yod bilgan kitobxonlar qodiriyxonlik kechalarini tashkil etishgan. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanida Xudoyorxon davrini tasvirlasada, biroq o‘zi istiqomat qilayotgan vaqtida sodir bo‘layotgan voqealarga zimdan ishora qiladi. Qodiriyning ilk romanida o‘scha davrdan to bugungacha yozilayotgan asarlarda ko‘rilmaydigan milliylik, an’anaviylik, etiqod va diniy axloq masalalari go‘zal tarzda o‘z ifodasini topgan.

Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanida qizjuvonlarni tasvirlashda go‘zal iboralar, chiroyli o‘xshatishlar, noziklikni bildiruvchi so‘zlar bilan tasvirlaydi. Muallif qizlarni tasvirlashda ularning xarakter-xususiyatini ham birgalikda berib boradi Asar bosh qahramonilaridan biri bo‘lgan Otabekning Marg‘ilonda Mirzakarim qutidorning qiziga uylanish sahnasida ko‘rishimiz mumkinki, qizlar majlisi latif so‘zlar bilan qizlarning ta’rifi beriladi. Qizlar Kumushbibini xotinlik olamiga uzatish uchun yig‘ilishib ularning kiygan eng asl, eng nafis kiyimlari, favqulodda yasanib olganlari husn olamini yana bir qat, yana bir qayta yuksakka ko‘taradi. Majlisga yig‘ilgan qizlar husnda bir-biridan qolishmaydigan malak va parilarga qiyoslanadi. Kumushning hamsuhbatlari Anorgul, Savra, Gulsin, Xonimbibilar ko‘rsatiladi. Ular aytgan ashula-yu labarlar, kuy-u qo‘shiqlar majlisga o‘zgacha shukuh bag‘ishlaydi. Qizlar ipga tuzilgan marjondek uy tevaragida o‘tirishib, bunng ustiga yovoshlik, o‘ychanlik ularning ko‘rinishlariga ma’naviy bir husn va jiddiyat berib, bir husnga yuz husn qo‘shgan edi. Qaysi qiz chiroyli ekanligidan bahs boylashsa, bahsning oxiri ko‘rinmasligini so‘z ustasi bo‘lgan Julqunboy: Agar bu uyga kirib, bu majlis a’zolarini bir martaba ko‘zdan kechirsangiz, hzirdanoq aytib qo‘yishim mumkinki, albatta esingiz chiqib ketar: - Bu gulmi, ko‘hlik? Yo‘q, narigisi! Undan ko‘ra bunisi! Barchasidan ham o‘ttasi!... Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorg‘a kelalmay el ichida kulgiga

ham qolursiz, rasvo ham bo‘lursiz.” – deya ta’rif etadi. Kumushning ko‘nglini ko‘tarish uchun qizlarning shaddodi bo‘lgan Gulsinbibi va Xonimbibilar majlisning eng qiziq tarafi bo‘lgan lapar aytishni boshlab yuborishadi.

Hali o‘n uch – o‘n to‘rt yoshlarda bo‘lgan Sharif miltiqchining qizi Saodatning Qodiriy usta Alim tilidan suratini ajib so‘zlar bilan chizadi, uning qo‘g‘irchoqdek qaddi qomatiga mos bo‘lgan do‘ndiqligi, bo‘y-bastiga yarashib tushgan gunohsiz o‘ynab turuvchi qora ko‘zları, qizil olmadek taram-taram yuzlari, qosh-u kipriklari bilan tasvirlaydi. Saodatni husndagina emas, balki usta Alimning hayotiga ham baxt bo‘lib kirdi. Saodatga bo‘lgan mehr muhabbat usta Alimning bir g‘ayratiga o‘n g‘ayrat qo‘shib ro‘zg‘orining yana-da to‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Kumush tasviri “O‘tkan kunlar” romanida berilgan eng ko‘p ta’riflardan biri hisoblanadi. Chunki asarning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Kumushbibi asar davomida qanday holat va vaziyatlarni boshdan kechirgan bo‘lsa, muallif har bir vaziyatda Kumush holatini, ichki kechinmalarini batafsil tasvirlaydi. Asarda Kumushning dastlabki tasviri par yostiqda yotgan qora zulfli, quyuq jingala kiprikli, tim qora ko‘zli, qop-qora o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshli, to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biz oz qizillikka aylangan, latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xoli, oq ozik qo‘llari bilan beriladi. Kumushning nikoh qshomida bo‘ladigan qizlar bazmida esa boshqa holda tasvriga olinadi: qizlar bazmiga yangalar tomonidan uzatilgan Kumush boshida oq shohi ro‘moli, oq shohi ko‘ylak ustidan oq kumush zarrin sirilgan po‘stin, baqbag‘alarini o‘rab turgan yoqa qunduz kiyimlar, qora jingalak sochlarini sollanib tushgan, issiq bug‘dam oppoq yuzlari bo‘g‘riqqan holda; Kumush ota-onasi bilan Toshkentga kelganda paranjisi qo‘lida, qora atlas ko‘ylak, zangor latta mursak, oq shohi ro‘moli, shahlo ko‘zları kulimsirashga yaqin uyalinqiragan holda tasvirlanadi. Kumushni ham barcha ayollar singari rashk tuyg‘usi cho‘lg‘ab olgan sahnasini Toshkentga ilk kelgan kunlaridan bilishimiz mumkin. Kumush har taraflama: husn borasida ham, aql borasida ham, muhabbat borasida ham kundoshi bo‘lmish Zaynabdan ustun edi. Kumush vafot etgan bo‘lsa-da o‘zidan zurriyod – Yodgorbekni dunyoga keltirishga ulgurdi. Hayotga kelib sevilishga-da sazavor bo‘lmagan Zaynab taqdiri jununlik ila yakunlandi. Kumushnining o‘rniga Otabek sevgisiga sazavor bo‘lishni xohlab yosh juvonning joniga zolim bo‘lgan Zaynab ko‘p malomatlarga qoladi. Kumushning xati ila yo‘lga chiqqan Mirzakarim qutidor va Oftob oyim Kumushning vafotiga uch kun bo‘lgachgina yetib keladi. Ular yolg‘iz farzandini oxirgi yo‘lga kuzata olishmadi. Qancha orzular bilan yo‘lga chiqqan ota-onani baxtsizlik qurshab oldi. Bechora ona, bechora ota!..

Xushro‘ybibi Zaynabning o‘zidan yetti yosh katta bo‘lgan opasi, Mohira oyim va Olim ponsodning katta qizi edi. Yozuvchi tomonidan unga singdirilgan uzun bo‘y, qotma va zarcha tanalik kabi tashqi ko‘rinish Xushro‘yning xarakteri: yengil, tez lavzli, ko‘zi o‘ynab turuvchi, har sekundda o‘n yoqqa alanglaydigan sifatlar asar davomida

Xushro‘ybibining Yusufbek hoji oilasida bo‘lgan voqealarga arashuvlarida qo‘l keladi. Xushro‘yga bolalik chog‘idayoq uy ichi va qo‘ni-qo‘shnilari tomonidan “shaddod” ismi berilgan. Chunki u kimdan bo‘lsa-bo‘lsin, aytkanini qildirmay qo‘ymas edi. Agar birorta ish uning tilagiga teskari bo‘lsa, shovqin-suron qilib hammani jonini halak qilardi. Shuning uchun uyda Xushro‘yning nima ovqat yeyishini bilmasdan turib uyda ovqat qilinmas edi. Hayit bayrami munosabati bilan kiyimlik bir oylar ilgari olinsa ham, Xushro‘yga yoqmasa yoqadigani almashtirilar, mehmondorchilikda ham u boraman desa uni tashlab ketishga hech kimda had bo‘lmas, mobodo borish fikriga qarshi bo‘lsa, hammadn oldin fikrini e’lon qilar, uni joyidan bir qadam siljitchishga hech kimda haq qolmas edi. Xushro‘ybibining turmush qurush sahnasi ham o‘zining fe’lidek bir sharoit, bir yo‘sinda sodir bo‘ldi. Eshigiga kelgan sovchilarning yoniga chiqib: “ersirab qolganim yo‘q”, - deya ularga javob berib yuboradi, b ishi bilan ota-onasining yuzini yerga qaratadi. O‘ziga musht ko‘targan akasi Azimbekni ham haq so‘zları bilan fikridan qaytaradi. Xushro‘yning turmushga chiqishi favqulorra bir hodisa bo‘ladi. Turmushga chiqmagan, buning ustiga baobro‘xonardon qizi bo‘lgan Xushro‘ybibi Nusratbekdan kelgan sovchilarga rozilik bildirib, uyi va qo‘ni-qo‘shnisini xayron qoldiradi. Chunki Nusratbek oilali, uni ikkinchi xotinlikka olyotgan edi. Xushro‘ybeka to‘ydan so‘ng Nusratbekni birinchi xotinini ikkita bolasi bilan quvlaydi. Nusratbek farzand ko‘rmayotganini hazil aralash Xushro‘ybekaning yuziga solganda “bolasiz kishi dunyoda turolmaydigan bo‘lsa, bir oz zahar bilan avval sizni, keyin o‘zimni o‘ldiraman”, - deya po‘pisa qiladi. Xushro‘ybeka Julqunboy tomondan salbiy obraz sifatida tasvirlanadi. Uning qilmishlari gullab turgan Nusratbek oilasini yo‘q qilibgina qolmay, singlisi bo‘lmish Zaynabni ham siqilishga, buning natijasida Kumushni zaharab o‘ldirilishiga sababchi bo‘ladi. Xushro‘ybibi muallif tomonidan tanlangan konrast obrazdir. Huddi Jannat xoladek ismi jismiga mos tushmaydi. Ismining ma’nosи “go‘zal, chiroyli” bo‘lgan Xushro‘yda tashqi tarafdan ham, ichki tarafdan ham go‘zallik alomatlari sezilmaydi. Faqat o‘zini o‘yaydigan bunday kimsalar uchun birovning g‘amini yeyish kabi odamiylik tuyg‘ulari begona. Ismigina Xushro‘y bo‘lgan badiiy qahramon asarda ikkinchi darajali obraz bo‘lsa-da asarda burilish nuqtasi yasalishiga turtki bo‘ladi.

Mohlar oyim va Olim ponsodning kenja farzandi O‘zbek oyimning orzusiga ko‘ra uylangan Otabekning ikkinchi rafiqasi, asar fojeaviy tugashiga sababchi bo‘lgan obraz aynabdir. Zaynab muallif tomonidan qisqa bo‘y, oq tan va go‘shtdor sifatlari bilan tasvirlanadi. Faqat tashqi ko‘rinishda emas, ichki xarakter jihatidan ham bir qorindan talashib tushgan Xushro‘ybibidan farq qilar edi. Zaynab loppos, o‘nta so‘zga zo‘rg‘a bitta so‘z bilan javob beradigan, ichidagi o‘y-fikrni so‘nggi daqiqalardagina aytadigan “ichimdagini top” kishilar xilidan edi. Shuning uchun uy ichi va yor-u do‘stlari tomonidan “pismiq” ismi berilgan, bu ismga mosligini Mohlar oyim hayit bayramiga bir oy avval farzandlariga Olim ponsodga aytib oldirgan, bayramga qadar tiktirilgan

kiyimlar Zaynabga yoqmaganligini arafa kuni onasiga ko‘z yoshlari aralash bayon qilinar, bunda ham kech bo‘lgan bo‘lar edi. Zaynab ulg‘ayganda ham bu odati uni tark etmaganligini Kumushbibi ota-onasi bilan Toshkentga kelish arafasidagina o‘zini namoyon etadi. O‘z jufti haloli bo‘lgan Otabekning unga befarqligiga unchalik ham e’tibor bermaydi. Bu e’tiborsizlik Otabekka qo‘l kelib, unga befarqligicha qola beradi. Zaynabning ko‘ngli borligi, ne umidar bilan bir yostiqqa bosh qo‘yanligini faqat kundoshi bo‘lgan Kumushbibi ota-onasi bilan Toshkentga kelishidan bir necha kun oldingina ko‘z yoshlari bilan Otabekka ma’lum qiladi. Ammo bu vaqtida kech bo‘lgan edi. Kumushni aynan Zaynab tarafidan zaharab o‘ldirilishi o‘quvchi nigohida Zaynab salbiy obraz sifatida muhrlanib qoladi. Zaynab salbiy obraz sifatida tasvirlansa-da, Zaynabning Otabekka bo‘lgan chin muhabbat ortidan Kumushbibi hayotiga zomin bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. Zaynabdagi tabiat tomonidan tuhfa etilgan xarakter sevgisini o‘z oshig‘iga vaqtida izhori dil qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Ag‘yor Kumushbibi Toshkentga kelmaguniga qadar Otabkening Toshkentda yurishi, uning sog‘ligi va borligi bilan kifoyalanib yurgan, sidqi-dilda qaynota va qaynonasiga xizmat qilib yurgan bibi Zaynab, raqibasi kelgachgina yorini qizg‘anish holatiga tushdi. Zaynabbibi ham muhabbat borasida Kumushdan kam sevmadi, uning birgina aybi Kumush erishgan baxtga, ya’ni sevikli yor bo‘lish baxtiga erishmadi. Bir osmonga ikki oftob sig‘maganidek, bir ko‘ngilga ikki yor ham sig‘mas. Mirzakarim qutidor va uning oila a’zolari kelish sahnasiga diqqat qiladigan bo‘lsak, tabiatan chala-dumbul deya ta’riflangan O‘zbek oyim qo‘ni-qo‘shni va Zaynab hamda uning onasi Mohira oyim, opasi Xushro‘ybibi, yangasi Hanifanisolar yonida Marg‘ilonlik qudasi Mirzakarim qutidorning mol-dunyosi, fahm-farosati to‘g‘risida so‘zlar, qutidorning o‘g‘lim bo‘lsa shundog‘ bo‘lar edi-da, mendan keyin hamma davlatim shuniki, ilohi omon bo‘lsin deb yurganlari haqida mehmondorchilikka yig‘ilganlarga aytib maqtab o‘tiradi. Bu albatta Zaynab tarafning g‘ashini keltiradi: Mohira oyim allanuchkalangani holatda javob berar edi: - Ha, aylanay quda, qars ikki qo‘ldan chiqadir, deganlar... Buzoq yaxshi bo‘lsa, ikki onani ham emar ekan... Mohira oyim qudasini sal bo‘lsa-da hovuridan tushurish, buning ustiga Zaynabni ham yerga urdirib qo‘ymaslikka harakat qilib aytdadi. Gapda qo‘llangan “Ha, aylanay quda,” iborasi aynan ma’nosiga ko‘ra tasdiq ma’nosini bildirsada, ammo uzviy ma’nosи yalinish, iltimos ohanglarini ham beradi. Yusufbek hoji xonadonisda cho‘rilik qiladigan Oybodoq mehmonlarning kelgani xabarini berishi bilan O‘zbek oyim gapirayotgan gapini ham chala qoldirib ularning iqboliga shoshishi yana bir bor Zaynabning nafsoniyatiga tegmay qolmaydi. Zaynabning kundoshini kutib olish o‘rniga bo‘zarg‘an holatda uyiga kirib ketishiga sabab bo‘ladi. Zaynab barcha qizlar qatori kelinlikni turmush o‘rtog‘i, ne umidlar bilan bir yostiqqa bosh qo‘yanidan topishni orzu qiladi. Bu orzusi unchaik ham amalga oshmagan bo‘lsa-da, eri tarafidan qattig‘ so‘z eshitmaganligidan, qaynota va qaynonasining xushfe‘l va tarbiyaliliqi uning chin ko‘ngildan bu uygaga mehr berishiga sabab bo‘ladi. Millatimizda qaynonani o‘z

onasidek ko‘rish holatlari uchrab tursa-da, ammo doim kelinlar o‘z qaynotalarini o‘zining tug‘ishgan otalaridek mehr berishlari odatiy holga aylanib qolgan. Zaynabda ham mana shu holatni Qodiriy oddiy so‘zlar orqali juda nozik holda ifodalaydi: “Qayin ona, kelin qarshisig‘a kelib o‘lturishkandan keyin hoji Zaynabka qarab oldi:

- Bolam, Zaynab, - dedi, - biz Marg‘ilondagi opang ko‘chini olib kelmakchi bo‘ldiq... Sen shunga nima deysan?

Zaynab yalt etib qayn onasig‘a qaradi, chunki O‘zbek oyimning boyagi gapi endi unga onglashilg‘an edi. Do‘stni dushman yonida ko‘rib bilinar-bilinmas entikdi.<sup>1</sup>

Yusufbek hoji hamda O‘zbek oyimni o‘ziga do‘st bilgan, damba-dam domla-yu mullaga o‘g‘lini duo qildirtirishga kelini Zaynabni undaydigan O‘zbek oyim tezda o‘zgargani Zaynabnisani entiktirgan edi. Dushmani kelar payti shuning uchun bo‘zrayib o‘z xonasiga kirib ketishga majbur bo‘lgan edi. Doim o‘ziga hamfikr, do‘st deb o‘ylaydigan O‘zbek oyim gapirib turgan gapini-da tashlab Marg‘ilonlik kelinni kutib olishga shoshgani shundoq ham ezilgan yuragini battar ezdi. Zaynabning aybi oa-onasining xohishicha o‘zi sevmagan bilmagan xonadonga kelin bo‘lib borishida desak, Zaynabda ham ichi qoralik hislati ko‘rinadi. Kundoshi kelar mahal Yusufbek hoji tomonidan Zaynabga berilgan “egachi – singil bo‘lib ketish munosabati”iga u “bo‘lib ketarmiz” javobi bilan yana qayta so‘ralganda esa “bilmadim, qars ikki qo‘ldan chiqadir, men yaxshi bo‘lg‘anim bilan opam yomon bo‘lsa, hozirgi bergen va’damdan nima foyda bo‘lsin” , - deya aytgan gaplaridan ham bilishimiz mumkinki, agar Kumush yaxshi bo‘lsa men ham yaxshi, u yomon bo‘lsa men ham yomon manisidagi gapni aytadi. “Kundoshlik uyda kunda janjal” deganlaridek Marg‘ilondan Toshketnga kelgan Kumushda ham qizg‘anchiqlik holati bir necha bor kuzatiladi. Zaynabni ham o‘ylamay, u ham ne orzu-umidlarda bir yostiqqa bosh qo‘ygan demay hattoki Otabekdan Zaynabnisani taloq qildirish haqida so‘z ham olishi Kumushning ham doimiy ijobjiy qahramon degan fikrdan, uning ham farishta emas balki, odam bolasi ekanligidan dalolat beradi. Zaynab Kumush kelgan halovatini yo‘qotadi. Uch-to‘rt oy ichida dam o‘tmasdan uyda chiqqan janjallar natijasida ota uyiga, qarindosh-urug‘larinikiga ketib qolishga majbur bo‘ladi? Chunki Kumush o‘z aql va fahm-farosati, ochiq fe’lliligi-yu go‘zal hulqi, buning ustiga eri tomonidan sevilisi barcha oila a‘zolarining Kumushning tarafini olishiga sababchi bo‘ladi. Birgina Yusufbek hojigina oiladagi bunday holatniadolat tarozisida o‘lchab, ikkala keliniga ham xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘ladi. Zaynab ikki yillab yonida bo‘lgan muhabbatni egasidan ko‘rmagan iltifotni Kumush Toshkentga kelganiga hali bir oy ham to‘lmadsanoq sazavor bo‘ladi. O‘zbek oyimning shu ikki yil ichida Zaynabga xo‘jako‘rsingagina yalpog‘lanishi ham o‘z nihoyasiga yetib, ba’zida Zaynabga nisbatanadolatsizlik qilganini ham muallif tomonidan Yusufbek tilidan aytib o‘tib ketadi. Hayotdan zerikkan, sevilmagan bechor Zaynab so‘nggi urush-janjaldan so‘ng opasi shaddod Xushro‘ybibining uyiga borganda

---

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy.Tanlangan asarlar. T.:“Sharq” nashriyoti. Toshkent-2018. B243.

opalargagina xos bo‘lgan jonkuyarlik holat ro‘y beradi. Singlisining bu holga tushishiga faqat va faqat singlisini ayblab, undagi muammoni ochiq aytadi. Xushro‘ybibi hech qachon Zaynabga “oilangdagilarni zaharla” deb aytmaydi. Singlisiga joni achiganidan, ko‘z yoshlarining daryo bo‘lganidan kuyinib “Sening o‘rningda bo‘lganimda bilasanmi nima qilar edim, Zaynab, dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo‘shib tashlar edim”, - deya gapiradi. Xushro‘ybibi o‘zicha o‘ylagan to‘g‘ri yo‘lni Zaynabga ko‘rsatadi, ya’ni erdan chiqishni maslahat beradi. Ammo Zaynabning chin oshiq bo‘lganidan bexabar opa agar Kumushning tinchini buzaversang seni taloq qiladi deya uning yuragiga yana yog‘ sepati. Zaynab chin oshiq ersa-da, yorini o‘zgasi bilan baxtli ko‘rishga chidolmaydi. U shunchalar Kumush o‘rnida bo‘lishni xohlaganidan o‘zining ismini-da unutadi. Otabek tomonidan Kumushga tuhfa etilgan muhabbatga erishmoq istagi Zaynabni faqatgina Kumushning o‘limi bilangina amalgalashiga ishontiradi. Kumushni zaharlagandan so‘nggina bu qarori xato ekanligini tushunib yetdi. U faqatgina Kumushni zaharlamadi, balki o‘zining keyingi hayotini ham zaharladi. Kumush vafotidan keyin uning aqldan ozishi qilgan ishiga pushaymonligidan bo‘lsa ajab emas. Kumush vafotidan bir yil o‘tkach Otabek do‘sti usta Alim bilan Marg‘ilondan Toshkentga keladi. Toshkentda ekanligida marhuma Kumushning qabri ziyoratiga borganda Zaynab ham Otabekni ko‘rgani boradi. E’tibor berishimiz kerak bo‘lgan yana bir sahna borki, nega aynan Zaynab Otabekni qabristonda ko‘radi. Axir Marg‘ilondan qaytgan Otabekni ko‘cha-kuyda yoki qabristondan boshqa joyda uchratishi ham mumkin ediku. Zaynab o‘z qurboni Kumushni zaharlagandan afsusda, mozoristonni kezib yurishi, sevikligi bir kunmas bir kun albatta ziyoratga kelishini bilgani holda oshig‘ini kutadi. Asarda majnuna deya ta‘rif berilgan Zaynab suyuklisinda taniydi, unga yaqinlashmoqqa, Kumushga bo‘lgan Otabek mehrini o‘zida his qilmoqqa intiladi. “Otabek holsizlanib oyog‘ uzra turdi va orqasidag‘i yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib bir necha qadam qabr tomong‘a tislandi... Ko‘laga yaling‘ansumol unga yaqin yurib keldi...

-Kim bu?

-Men Kumush!...

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

-Ket mundan!

-Men Kumush! – dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zero ki dunyodagi eng yaqin kishisi unga “ket!” amrini bergen edi. Zaynab orqasig‘a qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi. Otabek qaytib unga qaramadi, qabr yonig‘a tiz cho‘kdi...<sup>2</sup> Julqunboy tomonidan qo‘llangan ushbu tasvir har qanday yuragi urib turgan kishini rahmini keltirishi turgan gap. Zero, muhabbat yo‘li-da o‘z ismidan-da kechish, aqldan ozgan bo‘lsa-da sevgilisi Otabekni tanish hamda begi uchun u sevgan Kumush bo‘lishga-da tayyorligi albatta , chin oshiq bo‘lmog‘i lozim.

---

<sup>2</sup> Abdulla Qodiriy.Tanlangan asarlar. T.:“Sharq” nashriyoti. Toshkent-2018. B301.

Abdulla Qodiriy birinchi o‘zbek romanida Xushro‘ybibi bilan Zaynabning fe’l-atvori orqali konflikt yaratgan bo‘lsa, kundoshlik qismati bilan qarshilantirishni yuqori darajaga olib chiqdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy.O‘tkan kunlar.-T.: Yangi asr avlod, 2011
2. Jabborov N. O‘tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini.-T.: Sharq, 2019
3. Jo‘raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri.- T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. Qodiriy germinatevtikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017
5. Mirzayev T. Va boshqalar. O‘zbek xalq maqollar.- T.: Sharq, 2005
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Qo‘shtonov M. O‘zbekning o‘zligi/Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
8. Suyunova Z. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasi. – T.: Toshkent. 2022.

**BOLALAR SEREBRAL FALAJI KASALLIGI BILAN KASALLANGAN  
MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI MAXSUS  
JISMONIY MASHQLAR ORQALI KORREKSITALASH**

*Djurabayeva Dilafruz Ergashbayevna  
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya;** Miya falaji bo'lgan bolalarda noto'g'ri harakat shakllari barqaror bo'lib, tananing va oyoq-qo'lllarining patologik pozitsiyalarini va pozitsiyalarining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Mushak tonusi engil buzilgan ayrim bolalarda apraksiya (maqsadli amaliy harakatlarni bajara olmaslik) kuzatiladi. Bunday bolalar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini alohida qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar: kiyinish, yechish, tugmachalarni bog'lash, oyoq kiyimlarini bog'lash va hokazo. Shuni ta'kidlash kerakki, maqsadli amaliy harakatlar harakat tajribasi jarayonida shakllanadi; motor faolligi etarli bo'limganda, ikkilamchi apraksiya qayd etiladi.

**Kalit so'zlar;** Miya falaji, patologik pozitsiyalarini, mushak tonusini, motor faolligini, spastik diplegiyani.

Bosh miya strukturasi zararlanish sohasiga qarab bolalar nevrologiyasida DSPning 5 turi farqlanadi. Ular orasida eng keng tarqalgani spastik diplegiyadir. Bunday holat barcha DSPlarning 40-80 % ini tashkil etadi.

Bosh miyaning harakat markazlari zararlanadi, natijada oyoqlarda parezlar kelib chiqadi. Bosh miyaning faqatgina bir yarimsharida zararlanish ro'y beradigan bo'lsa, harakat buzilishi tananing qarama qarshi tomonida yuzaga chiqadi.

Bolalar serebral falajining ko'pgina holatlarida po'stloq osti markazlari buzilishi bilan bog'liq giperkinetik shakli uchraydi. Kasallik klinikasida ixtiyorsiz harakatlar – giperkinezlar namoyon bo'ladi va bunday holat bola hayajonlanganda, qo'rqqanda yaqqol yuzaga chiqadi.

Miyachanining zararlanishi natijasida atonik-astatik bolalar serebral falaji shakllanadi. Kasallik belgilari statika va koordinatsiya, mushaklar atoniysi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

DSPning eng og'ir ko'rinishi ikki tomonlama gemiplegiyadir. Bunda bosh miya yarimsharlarining ikki tomonlama zararlanishi ro'y beradi. Bolalar mushaklari rigidligi hisobiga nafaqat yurish, tik oyoqda turish hatto mustaqil ravishda boshlarini ham tutishga qiynaladilar.

Bolalar serebral falaji turli xil ko'rinishda va turlicha og'irlilik darajasida kechadi. Kasallikning klinik belgilari bosh miya strukturasining zararlangan sohasi va chuqurlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ba'zida bolalar serebral falaji belgilari bola dunyoga kelishi

bilan yuzaga chiqadi. Ko‘pincha kasallik bir necha oy o‘tgach pediatr ko‘rigida bolaning jismoniy rivojlanishdan ortda qolishi bilan aniqlanadi.

DSPning asosiy klinik belgisi bolalarning harakat doirasidagi yangi harakatlarni bajara olmasligi va yangi qobiliyatlarni o‘zlashtira olmaslidir. Serebral falaj kuzatiladigan bola boshini uzoq muddat tutib tura olmaydi, o‘yinchoqlar uni qiziqtirmaydi, boshini bura olmaydi, qo‘l va oyoqlarini erkin harakatlantira olmaydi, o‘yinchoqlarni ushlay olmaydi. Bolani qo‘lga olib oyoqlarini yerga tirasa oyoq kafti bilan to‘liq turmaydi, oyoqlarining uchigina yerga tegib turadi.

DSP bir tomonlama yoki ikki tomonlama parezlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Agar gapisish markazi zararlangan bo‘lsa bolada nutq buzilishi belgilari (dizartriya) kuzatiladi. Yutqin va hiqildoq faoliyatini boshqaradigan markazlar zararlanadigan bo‘lsa yutinish bilan bog‘liq muammolar (disfagiya) yuzaga chiqadi.

Bolalar serebral falajida harakat doirasida kamchiliklar kuzatilsa ham bolalar ijtimoiy hayotga moslashib ketishlarining imkonini bor. Bunda ularning ota-onasi va yaqinlarining roli katta. Bolalarda ijtimoiy adaptatsiyani shakllantirishda reabilitolog, psixolog va pedagoglar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kasallikdan aziyat chekadigan bolalar maxsus bog‘chalar, maktablarda hayotga bo‘lgan moslashuvchanliklarini oshirib boradilar.

Bolalar serebral falaji oqibati kasallikning og‘irlik darajasi, shakli va o‘z vaqtida boshlangan davo muolajalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi holatlarda DSP natijasida nogironlik rivojlanishi ham mumkin. Ammo, to‘g‘ri olib borilgan muolaja natijasida bolalardagi deformatsiyalar, mushaklardagi muammolar va harakat doirasidagi kamchiliklar qisman bo‘lsada kamayadi va bolalar o‘z hayotida o‘zlarini o‘zlar mustaqil ravishda boshqara oladilari.

DSP profilaktikasi homiladorlik vaqtini ayollardagi turli xil patologiyalarni oldini olish, ayniqsa homila gipoksiyasiga olib keluvchi kasalliklarni davolashdan iborat bo‘ladi.

Bunday bolalarning jismoniy faolligini rivojlantirish uchun jismoniy reabilitatsiyadan foydalanish ayniqsa qulaydir. Jismoniy reabilitatsiya tizimli ravishda amalga oshirilishi, mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishi va o‘qituvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo’llanilishi kerak. Miya falajli odamlarni reabilitatsiya qilish usuli sifatida terapeutik mashqlar kompleks terapiyada etakchi o‘rinlardan birini egallaydi va tayanch-harakat tizimining buzilgan funktsiyasini tezroq tiklashga yordam beradigan tabiiy biologik usuldir. Patologik funktsiyalarni tuzatishga qaratilgan juda ko‘p usullar mavjud. Shu bilan birga, patologiyaning og‘irligi shunchalik aniqliki, ijtimoiy oqibatlar shunchalik muhimki, mashqlar terapiyasining yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish muhim, maqsadga muvofiq va dolzarbdir.

**Adabiyotlar:**

1. Shipitsina L. M., Mamaychuk I. I. Infantile cerebral paralysis. St. Petersburg, 2005. 272 p.
2. Potapchuk A. A. Adaptive physical education of children with abnormalities of the locomotor system: Textbook. St. Petersburg, 2003. 228 p.
3. Semenova K. A. Rehabilitation treatment of the sick with residual infantile cerebral paralysis. Moscow, Antidor Publ., 2007. 384 p.
4. Ivanova V. S. Study of the effectiveness of preventive work with the family of a disabled child with cerebral palsy to the type of relationship and family communications features of parents to the disease of the child with cerebral palsy. Tomsk State Pedagogical University Bulletin, 2013, vol. 6 (134), pp.111-115

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	NOTEWORTHINESS OF FILM STUDIES AND ADAPTATION IN LITERATURE	<b>3</b>
<b>2</b>	DEEMULGATORLARNING NEFT SANOATIDAGI AHAMIYATI	<b>6</b>
<b>3</b>	THE POSSIBILITIES OF TEACHING ENGLISH FOR 10-11 GRADES THROUGH COMPETENT APPROACH	<b>9</b>
<b>4</b>	МЕТОДИКА РАСЧЕТА ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ С УЧЕТОМ УПРУГОПЛАСТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ БЕТОНА	<b>12</b>
<b>5</b>	OAV DA ZAMONAVIY O'ZBEK TILI MUAMMOLARI	<b>16</b>
<b>6</b>	BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	<b>19</b>
<b>7</b>	KIMYO SANOATINING ATMOSFERAGA TA'SIRI	<b>22</b>
<b>8</b>	ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ АРХЕОЛОГИЯ ИЛМИНИНГ РИВОЖЛANIШI	<b>26</b>
<b>9</b>	МУСИҚА МАДАНИЯТИ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ	<b>29</b>
<b>10</b>	ТАСВИРИЙ САНЬАТДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИ ВА ЎҚУВ-УСЛУБИЙ ФАОЛИЯТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ УРНИ	<b>33</b>
<b>11</b>	SOLIQ TO'LASHDAN QOCHISHDA ZAMONAVIY FISKAL NAZORATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI	<b>38</b>
<b>12</b>	ФИЗИКА ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	<b>43</b>
<b>13</b>	TOK ZARARKUNANDALARI	<b>49</b>
<b>14</b>	O'ZBEKİSTONDA DAVLAT MOLİYA TİZİMİDAGI MAKROIQTISODİY KO'RSATKİCHLAR	<b>52</b>
<b>15</b>	УЗУМЗОР ВА ОЛМАЗОР БОҒЛАР ТУПРОҚЛАРИНИНГ СУВЎТЛАРИ	<b>56</b>
<b>16</b>	YALPIZ O'SIMLIGINING YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI	<b>60</b>
<b>17</b>	AGROKIMYO FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI	<b>63</b>
<b>18</b>	RANGTASVIR SAN'ATI VA UNING TURLARI	<b>70</b>
<b>19</b>	РЕЗУЛЬТАТЫ ИСПЫТАНИЯ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ НАБОРОВ ИФА ДЛЯ ДИАГНОСТИКИ БРУЦЕЛЛЁЗА ЖИВОТНЫХ	<b>73</b>
<b>20</b>	БУҒДОЙНИНГ ФУЗАРИОЗ КАСАЛЛИГИНИНГ ҲОСИЛДОРЛИККА ЗАРАРИ ВА УЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ	<b>79</b>
<b>21</b>	«РОЛЬ УЗБЕКСКОЙ СЕМЬИ И ТРАДИЦИИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА»	<b>87</b>

<b>22</b>	BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARNI RIVOJLANISHIDA JISMONIY MASHQLARNING AHAMIYATI	<b>90</b>
<b>23</b>	BURUN, TOMOQ KASALIKLARI	<b>94</b>
<b>24</b>	YETUKLIK DAVRIDAGI IJTIMOIY TARMOQLARGA TOBELIKNING TASNIFI	<b>95</b>
<b>25</b>	YETUKLIK DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	<b>97</b>
<b>26</b>	GURUHDAN CHETLATILISH MUAMMOSINING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK XUSSUSIYATLLARI	<b>99</b>
<b>27</b>	ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ И СВОБОД ЛИЧНОСТИ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	<b>101</b>
<b>28</b>	ЎЗБЕКИСТОНДА МУТОЛАА МАЊАВИЙ ҚАДРИЯТ ВА ТАЪЛИМ ТАРБИЯНИНГ АСОСИ СИФАТИДА	<b>108</b>
<b>29</b>	MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHDA HIKOYA USULIDAN FOYDALANISH	<b>116</b>
<b>30</b>	TO'Y VA FARZAND BILAN BOG'LIQ IJOBIY ISTAK MAZMUNLI BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI	<b>120</b>
<b>31</b>	QOVUN BARGLARIDA UGLEVODLAR ALMASHINUVIGA MIKROELEMENTLARNING TA'SIRI	<b>126</b>
<b>32</b>	DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH IN ENGLISH LANGUAGE	<b>129</b>
<b>33</b>	SELF STUDY	<b>132</b>
<b>34</b>	TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR - O'QUV MASHG'ULOTLARNI MODULLI TEXNOLOGIYA ASOSIDA LOYIHALASHNING ASOSI SIFATIDA	<b>135</b>
<b>35</b>	SPECIFICITY, MECHANISMS AND TEACHING OF CEFR IN UZBEKISTAN	<b>139</b>
<b>36</b>	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH YO'llARI	<b>142</b>
<b>37</b>	ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA O'ZBEK OTASI TASVIRINING POETIK SUVRATLANISHI	<b>146</b>
<b>38</b>	XX ASR TURKISTON YIGITLARI TASVIRINING POETIK SUVRATLANISHI	<b>149</b>
<b>39</b>	ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA MILLAT QIZLARI TASVIRI	<b>154</b>
<b>40</b>	BOLALAR SEREBRAL FALAJI KASALLIGI BILAN KASALLANGAN MAKTABGACHA YOSHIDAGI TARBIYALANUVCHILARNI MAXSUS JISMONIY MASHQLAR ORQALI KORREKSITALASH	<b>161</b>



**JOURNAL OF  
NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

